



2025/2026-O‘QUV YILIGA

TALABALAR UCHUN QO‘LLANMA

Mundarija

BOSHQARUV TARKIBI	7
UNIVERSITET KAFEDRALARI VA BO‘LIMLARI.....	7
“Tashkent International University of Education” bilan tanishish.....	8
Bakalavriat dasturlari	8
Kunduzgi ta’lim shakli.....	8
Sirtqi ta’lim shakli (2-3-4-kurslar)	9
Magistratura mutaxassisliklari.....	9
I. UMUMIY QOIDALAR.....	11
1. Talabalar uchun qo‘llanma	11
2. Aloqa.....	11
3. Talabalarning davomat siyosati va monitoring mexanizmlari.....	12
4. Intizom va xulq-atvor	13
5. Talabalarning odob-axloqqa oid majburiyatlari.....	14
6. Ta’lim jarayoni.....	16
7. Tildan foydalanish	17
8. Talabalar farovonligi haqida qayg‘urish.....	18
9. Talabalarning sog‘lig‘i va xavfsizligi.....	18
10. Talabalar turar joyi.....	18
11. Universitetda o‘rnatilgan umumiy qoidalar.....	19
12. Talabalar vakillari forumi (Guruh liderlari)	20
13. Talabalarni qo‘llab-quvvatlash va resurslar	20
13.1. Talabalarni qo‘llab-quvvatlash tuzilmalari	20
13.1.1. O‘quv ishlari va yoshlar bilan ishlash bo‘yicha birinchi prorektor	20
13.1.2. Akademik ishlar bo‘yicha prorektor	21
13.1.3. Akademik boshqaruv ofisi.....	21
13.1.4. Talabalar va yoshlarni qo'llab-quvvatlash bo'limi	22
13.1.5. Axborot resurs markazi.....	22
14. Akademik taqvim	22

15. Darslar jadvali.....	22
16. Universitetning ish vaqti.....	23
17. Darslarga qatnashish.....	23
18. Guruhdan guruhga ko‘chirish.....	23
19. Akademik kechiktirish	23
20. Aloqa tizimlari.....	24
21. LMS (ta’limni boshqarish tizimi)	25
22. Talabani identifikatsiya kartasi (ID karta)	25
23. Talabani shaxsiy ma’lumotlariga o‘zgartirish kiritish.....	26
24. Bitirganlik haqidagi diplom.....	26
25. Diplom dublikati.....	27
26. Hujjatlarni taqdim etish uchun so‘rov	28
27. Harbiy xizmatga chaqirilish muddatini kechiktirish	28
28. Xorijiy safarlarni tashkil etish tartibi	28
29. OTHM va INTI dasturlarini tugatgan talabalar.....	28
SHARTNOMA.....	30
30. Ta’lim xizmatlarini ko‘rsatish shartnomasi bo‘yicha moddiy javobgarlik va majburiyatlarning bajarilishini tartibga solish	30
30.1. To‘lov tartibi va shartlari.....	30
30.1.1. Ta’lim (dastur) uchun to‘langan mablag‘ni qaytarish	30
31. Universitetdan chetlashtirishga quyidagilar asos bo‘lishi mumkin:	31
31.1.1. Universitet tashabbusi bilan universitetdan chetlashtirish quyidagi hollarda bo‘lishi mumkin:	31
II. IMTIHONLARNI O‘TKAZISH TO‘G‘RISIDA NIZOM	32
32. Baholash mezonlari	32
33. Imtihon komponentlarining formatlari.....	33
34. Yakuniy imtihonga/qayta topshirishga (yoki boshqa turdagi imtihonlarga) kirish	36
35. Uzrli sabablar hisobi.....	37
36. Imtihonlarni boshqarish.....	38
36.1. Imtihonlar jadvali.....	38

36.2. Imtihonga tayyorgarlik.....	38
36.2.1. Yozma imtihonlarni topshirish bo'yicha ko'rsatmalar:.....	38
36.2.2. Taqdimotlarni topshirish bo'yicha ko'rsatmalar:.....	39
36.2.3. Og'zaki imtihon topshirish bo'yicha ko'rsatmalar	39
37. O'qituvchilar bilan konsultatsiyalar	40
38. Kurs ishlarini topshirish.....	41
38.1. Kurs ishlarini kech topshirish/yuklash.....	42
38.1.1. Kurs ishini yoki boshqa turdagi imtihonlarni kechiktirish (uzaytirish).....	42
38.2. Akademik qoidalarni buzish (akademik qoidabuzarliklar)	43
38.2.1. Intizomiy jazo choralari	44
38.2.2. Akademik qoidabuzarlikda gumon qilingan talabaga qo'llaniladigan choralar	44
39. Imtihon ishlarini baholash.....	45
40. Oraliq nazorat (MIDTERM).....	46
41. Yakuniy imtihon (MAIN EXAM).....	46
41.1. Yakuniy baholashni modul bo'yicha shakllantirish.....	46
41.1.1. Qayta topshirishni baholash	47
42. Natijalarning rasmiy e'lon qilinishi.....	47
43. Transkript (fanlar bo'yicha baholar ko'rsatilgan akademik o'zlashtirish to'g'risida ma'lumotnoma)	48
44. Olingan natijalarga aniqlik kiritish to'g'risida so'rov	48
45. Apellyatsiya	48
IV. KURSDAN KURSGA O'TISH– PROGRESSION CRITERIA.....	49
46. Mezonlar	49
47. TRAIL – 100 kreditdan ortiq bo'lmagan qarzdorlik bilan kursdan kursga o'tish.....	49
47.1. OTHM dasturi bo'yicha o'qiyotgan talabalar uchun kursdan kursga o'tish:	50
48. REMODUL - Qayta o'qish.....	50
III. O'QISHNI KO'CHIRISH	51

49. Har xil turdagi o‘qishni ko‘chirish.....	51
49.1. TIUEdan o‘qishni ko‘chirishda:.....	51
49.2. TIUEga o‘qishni ko‘chirish va to‘g‘ridan-to‘g‘ri qabul (direct entry)	51
49.3. TIUEda ichki ko‘chirish:.....	52
50. TIUE da sirtqi ta’lim quyidagi tartibda tashkil etiladi:	54
51. MAGISTRATURADA TA’LIM JARAYONINI TASHKIL ETISH.....	56
52. Mavzuni tanlash va ilmiy rahbarni tayinlash.....	56
53. Magistrlik dissyertasiyasining tuzilishi va uning mazmuniga qo‘yiladigan talablar	56
YAKUNLOVCHI SO‘ZLAR.....	58
SIZGA MUVAFFAQIYAT TILAYMIZ!	58

Tabrik soʻzlari

Tabriklaymiz! Siz talaba boʻldingiz va oʻsish uchun muhim qadam tashladingiz! **“Tashkent International University of Education”** (TIUE)ga xush kelibsiz! Ishonchim komilki, Siz oʻqishda ajoyib natijalarni koʻrsatasiz, yuqori shaxsiy va professional natijalarga erishasiz, Universitetimiz faxriga aylanasiz.

Universitet oʻz oldiga ulkan maqsad va vazifalarni qoʻyadi, ularning asosiylari – mamlakatimiz va butun mintaqamizdagi yetakchi Universitetlar qatoridan munosib oʻrin egallab, Yuqori malakali kadrlar dargohiga aylanish. Siz bilan birga oʻqish, izlanish va oʻsishni intiqlik bilan kutamiz!

BIZNING MISSIYA

Oʻzbekistonda oliy taʼlim tizimini takomillashtirishda ishtirok etish, innovatsiyalar, ilmiy izlanishlar, ijodkorlik va tadbirkorlikni rivojlantirishga hissa qoʻshish.

MAQSADIMIZ

Taʼlim jarayonining barcha ishtirokchilariga kashfiyotlar qilish, yangi gʻoyalarni ishlab chiqish, tanqidiy fikrlashni oʻrganish, bilimlarni oshirish va innovatsiyalar, ijodkorlik, tadqiqot va tadbirkorlikni rivojlantirishga yordam beradigan qadriyatlarni uzatish imkonini beradigan amaliy oʻquv muhitini yaratish.

Nosir Xodjayev

“Tashkent International University of Education” rektori

BOSHQARUV TARKIBI

Lavozimi	F.I.SH.	E-mail
Rektor	Xodjayeov Nosir Nodirovich	rector@tiue.uz
O'quv ishlari va yoshlar bilan ishlash bo'yicha birinchi prorektor	Sheraliyev Oybek Rixsillayevich	vice.rector@tiue.uz
Akademik ishlar bo'yicha prorektor	Baydjanov Maksudbek Islamdjanovich	m.baydjanov@tiue.uz
Strategik rivojlanish va xalqaro hamkorlik bo'yicha prorektor	Tursunov Nuriddin Nurullayevich	n.tursunov@tiue.uz
Moliyaviy direktor	Alimov Abror Botirovich	a.alimov@tiue.uz
Academic Registrar Office direktori	Ikramova Nigora Baxodirovna	n.ikramova@tiue.uz

UNIVERSITET KAFEDRALARI VA BO'LIMLARI

Bo'limlar	F.I.SH.	E-mail
Axborot texnologiyalari va Matematika kafedrasi mudiri	Tadjixodjayeva Elvira Rashidovna	e.tadjixodjayeva@tiue.uz
Iqtisodiyot va menejment kafedrasi mudiri	Karimova Maftuna Nurdinovna	T445@tiue.uz
Ta'lim boshqaruvi va pedagogika kafedrasi mudiri	Bekbayev Rauf Rustamovich	t403@tiue.uz
Axborot-texnologiyalar bo'limi	Kurbanov Ruslan Karimovich	it@tiue.uz
Talabalar va yoshlarni qo'llab- quvvatlash bo'limi	Raxmatova Aziza Erkinovna	SSD@tiue.uz
Axborot-resurs markazi	Abduganiyeva Maftuna Baxodirovna	LRC@tiue.uz
Tibbiy va psixologik yordam bo'limi	Shadimatova Sanobar Abdullayevna	medical.center@tiue.uz

“Tashkent International University of Education” bilan tanishish

“Tashkent International University of Education” (keyingi o‘rinlarda – Universitet/TIUE) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 23-iyundagi 404-son qaroriga muvofiq tashkil etilgan.

Axborot texnologiyalari, biznes va ta’lim sohasidagi mutaxassislarning bilim sifatini oshirish va amaliy kasbiy ko‘nikmalarini rivojlantirish zarurati bilan ushbu Universitetni tashkil etishga qaror qabul qilingan.

Bakalavriat dasturlari

Universitet quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha talabalar tayyorlaydi:

Kunduzgi ta’lim shakli

Yo‘nalish nomi	Ta’lim tili	O‘qish davri
International Foundation Programme / Xalqaro umumta’lim dasturlari	ingliz	1 yil
Amaliy matematika	o‘zbek, rus	4 yil
Filologiya tillarni o‘qitish	o‘zbek, rus	4 yil
Ta’lim va ta’lim jarayonlarini boshqarish	ingliz, o‘zbek, rus	4 yil
Axborot texnologiyalari	ingliz, o‘zbek, rus	4 yil
Kiberxavfsizlik	o‘zbek, rus	4 yil
Biznes boshqaruvi	ingliz, o‘zbek, rus	4 yil
Buxgalteriya hisobi va biznes	ingliz, o‘zbek, rus	4 yil

Sirtqi ta'lim shakli (2-3-4-kurslar)

Yo'nalish nomi	Ta'lim tili	O'qish davri
Axborot texnologiyalari	o'zbek, rus	5 yil
Kiberxavfsizlik	o'zbek, rus	5 yil
Biznes boshqaruvi	o'zbek, rus	5 yil
Buxgalteriya hisobi va biznes	o'zbek, rus	5 yil

Izoh: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 5-maydagi "Ta'lim sifatini ta'minlash va ta'lim xizmatlari ko'rsatish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-76-sonli farmoni bilan 2025/2026-o'quv yilidan boshlab ta'limning sirtqi shakliga qabul tugatildi.

Magistratura mutaxassisliklari

Mutaxassisliklari nomi	Ta'lim tili	O'qish davri
Pedagogika nazariyasi va tarixi (MSc)	o'zbek, rus	1,5 yil
Ta'lim muassasalari boshqaruvi (MSc)	ingliz, o'zbek, rus	1,5 yil
Ta'lim boshqaruvi va yetakchilik (MSc)	ingliz	1,5 yil
Ma'lumotlar ilmi (Data Science) (MSc)	ingliz, o'zbek, rus	1,5 yil
Buxgalteriya hisobi va moliya (MSc)	ingliz, o'zbek, rus	1,5 yil

TIUE da Buyuk Britaniya kredit-modul hamda baholash tizimi joriy qilingan bo'lib, 2 UK krediti 1 ECTS kreditiga mos keladi. TIUE da joriy qilingan talabalar o'zlashtirishini baholash tizimini Mahalliy baholash tizimiga o'tkazish O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2018-yil 9-avgustdagi 19-2018-son buyrug'i <https://lex.uz/docs/-3916793> ga asosan amalga oshiriladi.

Ta'lim o'zbek va rus tillaridagi to'rt yillik bakalavriat dasturlari yiliga 120 kredit jami 480 kreditdan iborat va ta'lim ingliz tilidagi to'rt yillik bakalavriat dasturi (Foundation +3 yil) yiliga 120 kredit hisobiga 480 kreditdan iborat.

Bitta kredit 15 astronomik soatga yoki 22,5 akademik soatga teng. Fan bo'yicha kreditlarni to'plash uchun talabanning har bir modul bo'yicha kamida 40 ball to'plashi lozim bo'ladi.

Universitetda akademik yil ikki semestrda iborat. Bir semestrning davomiyligi 15 hafta. Akademik yilning boshlanishi va oxiri har yili Akademik kalendar bilan tasdiqlanadi.

Modullar bo'yicha o'qitish va semestr davomidagi mashg'ulotlarni kreditlar soniga qarab taqsimlash tasdiqlangan yo'l xaritasiga muvofiq amalga oshiriladi.

Talabalarni qabul qilish

Universitetga kirish uchun akademik talablarni muvaffaqiyatli bajargan abituriyentlar **“Abituriyentlarni qabul qilish qoidalari”**ga muvofiq quyidagi hujjatlar va ma'lumotlarni taqdim etishlari kerak:

- Pasport yoki “ID” karta / shaxsiy guvohnomaning skanerlangan shakli;
- Diplom va ta'lim olganligini tasdiqlovchi tegishli shaxodatnoma va sertifikatlarining asl nusxasi (hujjatlarni belgilangan tartibda elektron shaklda taqdim etish mumkin);
- Qabul komissiyasi tomonidan talab qilingan boshqa tegishli hujjatlar.

Talabalar Universitet ma'muriyatiga ma'lumotlardagi o'zgarishlar to'g'risida zudlik bilan xabar berishlari kerak. Noto'g'ri ma'lumotlarni taqdim etish o'qishga qabul qilish jarayoniga ta'sir qilishi mumkin. Talabalarning shaxsiy ma'lumotlari Universitetda saqlanadi.

Maxsus ta'lim ehtiyojlari, nogironlik yoki vaqtinchalik shikastlanish/kasallik

Talabalar Akademik boshqaruv ofisiga ma'lum qilishlari shart, agar ular:

- doimiy nogironligi yoki maxsus ta'limga ehtiyoji borligi;
- baholash vaqtida vaqtinchalik kasallik / jarohat yoki maxsus ta'limga ehtiyoji borligi;
- imtihon bilan bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra, masalan, yaqin qarindoshlarining (ona, ota, aka, opa-singil, bobo-buvi va boshqalar) vafoti yoki jiddiy kasalligi tufayli psixologik holatida buzilishlar bo'lsa.

I. UMUMIY QOIDALAR

1. Talabalar uchun qo'llanma

Universitetga qabul qilingan har bir Talaba bilan (pullik) ta'lim xizmatlarini ko'rsatish to'g'risida shartnoma tuziladi va mazkur **TALABALAR UCHUN QO'LLANMA** shartnomaga muhim qo'shimcha hisoblanadi. Ushbu Qo'llanmada talabalar uchun Odob-axloq qoidolari va Talabaning Universitet bilan o'zaro munosabatlari tavsiflanadi.

2. Aloqa

Talabalar bilan o'z vaqtida va muntazam muloqot qilish, shuningdek, ma'lumotlarning aniqligi qisqa va uzoq muddatli istiqbolda ham dastur muvaffaqiyati uchun muhim hisoblanadi.

Talabalarning fikr-mulohazalari har doim rasmiy kanallar orqali rag'batlantiriladi. Talabalar universitet ma'muriyati bilan ushbu qo'llanmaning 4-betida ko'rsatilgan rasmiy elektron pochta orqali bog'lanishlari mumkin.

Universitetning quyidagi ijtimoiy tarmoqlarda rasmiy sahifalari mavjud:

- Veb-sayt: <https://tiue.uz>
- Facebook: <https://www.facebook.com/tiue.uz>
- Instagram: https://www.instagram.com/tiue_uz
- Telegram: https://t.me/tiue_uz
- LinkedIn: <https://www.linkedin.com/company/tiue>
- Youtube: <https://www.youtube.com/channel/UCUcptxJFA1fPQ3KceCXAUdw>

Universitet manzili: Toshkent sh., Yashnobod tumani, Tuzel-2 massivi, Imom Buxoriy ko'chasi, telefon: [\(+998\) 55 512 20 20](tel:+998555122020) / info@tiue.uz

Talabalar har bir semestr yakunida ta'lim xizmatlari sifati bo'yicha o'z fikr-mulohazalarini bildirishlari mumkin. **Bundan tashqari, talabalar istalgan vaqtda rektor@tiue.uz, Feedback@tiue.uz yoki ssd@tiue.uz elektron pochta manzili o'rqali o'z fikr-mulohazalarini qoldirishlari mumkin.**

Talabalarning fikr-mulohazalarini bilish uchun birinchi va kelgusi haftalarda tegishli bo'limlar xodimlari ham mashg'ulotlarda qatnashadilar.

Universitet shuningdek, har bir modul bo'yicha har bir talaba tomonidan to'ldiriladigan modul so'rovlarini o'tkazadi. Unda Likert shkalasiga (Likert scale-based) asoslangan qoniqish haqidagi ma'lumotlar so'raladi hamda sifatli va miqdoriy qayta aloqa taqdim etish imkoniyati beriladi. So'rovnoma jamlanib, tegishli xodimlarga topshiriladi va takomillashtirish rejalarida ma'lumot sifatida foydalaniladi.

Universitet har doim ochiq eshiklar siyosatini qo'llab-quvvatlaydi. Universitet xodimlari va professor-o'qituvchilari talabalar bilan samarali hamkorlikni yo'lga qo'yish va

samarali muloqot olib borishga tayyor.

Universitet, shuningdek, talabalarining ota-onalari va vasiylarini muhim manfaatdor tomonlar deb hisoblaydi hamda ularning fikr-mulohazalari va takliflarini mamnuniyat bilan qabul qiladi.

3. Talabalarining davomat siyosati va monitoring mexanizmlari

Talaba davomati va ijobiy akademik natijalar o'rtasidagi bog'liqlikdan xabardor bo'lishi kerak. Oddiy qilib aytganda, muntazam mashg'ulotlarga qatnashuvchi talabalar topshiriq va imtihonlarda yaxshi natijalar ko'rsatadi.

Shunday qilib, talabalar dastur davomida 100% davomatga ega bo'lishlari kerak.

Davomat punktuallik va mashg'ulot davomida auditoriyada qolishni anglatadi. Kechikib kelish yoki uzrli sabablarsiz erta ketishga yo'l qo'yilmaydi.

Universitet talabalarga yo'naltirilgan ta'limni targ'ib qiladi va talabalarining ta'lim jarayonidagi faolligini oshirish uchun loyihalar, bahs-munozaralar, taqdimotlar va boshqa faol o'quv tadbirlaridan foydalanadi. Shuning uchun ham talabalarining barcha mashg'ulotlarda qatnashishi, o'quv jarayonida faol ishtirok etishi muhim ahamiyatga ega. Talabalar barcha mashg'ulotlarda, jumladan, rejalashtirilgan akademik konsultatsiyalarda, o'quv mashg'ulotlarida va boshqa akademik tadbirlarda qatnashishlari shart.

Agar talabada mashg'ulotni qoldirishiga asosli sababga ega bo'lsa, u bu haqda Akademik boshqaruv ofisi va o'qituvchisiga xabar berishi kerak. Talabaning mashg'ulotga qatnashmasligining har qanday sababi mashg'ulotda qatnashmagan deb hisoblanadi.

Talabalarining davomatini ro'yxatga olish jarayoni LMS tizimi – ta'limni boshqarish tizimida (keyingi o'rinlarda - LMS) auditoriyada yo'qlama qilish yoki talabalarining shaxsiy ID-kartasidan QR kodni skanerlash orqali va/yoki auditoriyada o'rnatilgan "TERMINAL FACE-ID" maxsus uskunasini orqali amalga oshiriladi.

MUHIM!!! Talabalar bir semestr davomida har bir modul bo'yicha kamida 70% davomatga erishishlari shart, aks holda ular modul bo'yicha asosiy imtihondan (Main Exam) chetlashtiriladi. Har qanday modul bo'yicha 30% dan ortiq mashg'ulotlarga kelmagan talaba tegishli modul bo'yicha imtihondan chetlashtiriladi, bu esa imtihonni qayta topshirish zaruratini keltirib chiqaradi.

Har bir modul bo'yicha kamida 70% davomatga ega talabalarga ushbu modul bo'yicha umumiy baholash bo'yicha 10% miqdorida imtiyozli ball qo'shiladi. Eslatma: Agar talaba 70% davomatga ega bo'lsa, lekin asosiy imtihonda qatnashmasa 10% imtiyozli ballga ega bo'lmaydi. Shuningdek, davomati 70%dan past talabalarga ushbu 10% lik ball berilmaydi.

Favqulodda va uzrli sabablar tasdiqlansa (Uzrli sabablar hisobi bandiga qarang) talabalar belgilangan qoidalarga muvofiq ularni o'rganish uchun ma'muriyatga murojaat qilishlari mumkin. Arizalar Akademik yo'nalish bo'limlari (Akademik boshqaruv ofisi, kafedra vakillari) tomonidan ko'rib chiqiladi. Qaror qabul qilishda talabaning o'zlashtirishi va intizomi hisobga olinadi. Komissiya qarori ustidan apellatsiya qabul qilinmaydi.

Qaror qabul qilish uchun komissiya talabaning shaxsiy ishiga va akademik yili

davomida unga nisbatan kelib tushgan barcha shikoyatlarga asoslanadi. Komissiya doimiy ravishda kech qoluvchi yoki mashg'ulotlardan sabablarsiz erta ketuvchi talabalarni aniqlaydi. Talabalar o'zlarining mashg'ulotda qatnashmaganligi yoki kech qolish sabablarini Talabalar va yoshlarni qo'llab-quvvatlash bo'limiga yozma ravishda tushuntirishlari talab qilinadi.

O'qituvchilar dars jadvaliga ko'ra mashg'ulot boshlanishidan taxminan besh (5) daqiqa oldin LMSda davomatni qayd etadilar.

Yo'qlamadan so'ng mashg'ulotga kech qolgan talabalar mashg'ulotdan keyin o'qituvchiga murojaat qilishlari kerak va o'qituvchi ularni kechikkan deb belgilab qo'yadi.

Agar talaba mashg'ulotga uch (3) marta kech qolgan belgisini to'plagan bo'lsa, bu rasman bitta (1) ta mashg'ulotda ishtirok etmagan deb hisoblanadi.

Talabaning dars jadvaliga muvofiq mashg'ulot tugashidan oldin chiqib ketishiga ruxsat berilmaydi.

Agar talaba (og'ir va uzoq davom etgan kasallik, oilaviy sharoiti va boshqalar) barcha modullar bo'yicha mashg'ulotlarning 30% dan ortig'ini o'tkazib yuborishga majbur bo'lsa, Universitet doimiy ravishda dasturni o'tkazib yuborish akademik o'zlashtirish keskin pasayishi va natijada imtihonlarni topshirish imkoniyati kamayishi sababli talabaga akademik ta'til uchun ariza berishni taklif qiladi.

Talabalarning davomatga oid har qanday shikoyatlari zudlik bilan yozma ravishda Akademik boshqaruv ofisiga yuborilishi kerak.

Tibbiy ma'lumotnomani Akademik boshqaruv ofisi talabalardan ma'lumotnoma berilganidan keyin uch kun ichida oldindan ogohlantirmasdan qabul qiladi;

Qoldirilgan mashg'ulotlarga quyidagi holatlar "sababli" hisoblanad:

- *talaba birdan o'zini yomon his qilsa;*
- *favqulodda vaziyatlarda;*
- *yaqin qarindoshlarining vafoti;*
- *xizmat safari va boshqa holatlar.*

4. Intizom va xulq-atvor

Do'stona va akademik muhitni saqlab qolish uchun barcha talabalar o'zlarining ustoz va o'qituvchilariga, ma'muriyat xodimlariga va albatta, bir-biriga hurmat ko'rsatishlari kerak. Auditoriyalarda talabalar o'qituvchilarining barcha ko'rsatmalariga rioya qilishlari kerak, ham ijobiy – ilm olish, ham salbiy - samarasiz va buzg'unchi faoliyatni to'xtatish, masalan, mashg'ulot jarayonida maxsus ko'rsatmasiz mobil telefonlardan foydalanish, talabaga o'rnini o'zgartirish haqida ko'rsatmasiz auditoriyada yurish va hokazo. Agar talabadan auditoriyani tark etish so'ralsa, u mashg'ulotda qatnashmagan deb belgilanadi.

Agar talaba o'z kursdoshlari yoki o'qituvchisiga nisbatan tajovuzkorlik yoki haqorat qilish orqali o'quv jarayonini jiddiy chalg'itsa, undan kun davomida Universitetni tark etishi so'raladi va u butun kun davomida mashg'ulotda bo'lmagan deb belgilanadi. Zaruratga ko'ra, Universitet xodimlari bu jarayonda yordam berishi mumkin.

Ikkala holatda ham o'qituvchi hodisa haqida hisobot yozadi va mazkur hisobot talabaning shaxsiy ishiga kiritiladi. Talabaga hisobotning nusxasi beriladi va u uch kunda apellyatsiya kiritishi mumkin. Agar talabadan ikki marta auditoriyani tark etish so'ralgan yoki jiddiy intizomiy huquqbuzarlik sodir etilgan taqdirda, u Universitetning Odob-axloq komissiyasi yig'ilishiga taklif qilinadi. Talabaning xohishiga ko'ra, uning vakili va otanasi/vasiysi taklif qilinadi.

Yig'ilish davomida chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqiladi. Talabaga intizomiy sinov muddati berilishi, konsultatsiya, qo'shimcha ta'lim olishga yuborilishi yoki boshqa choralar ko'rilishi mumkin. Agar talabaga intizomiy sinov muddati berilgan bo'lsa, u bir oydan so'ng navbatdagi yig'ilishga taklif qilinadi, undagi ijobiy o'zgarishlar baholanadi va quyidagilar taklif etiladi - sinov muddatini bekor qilish, shu jumladan intizomiy chetlashtirish yoki boshqa intizomiy jazo choralarini qo'llash.

Talabalar umumiy o'quv joylarida, ayniqsa mashg'ulot va imtihonlar paytida sukut saqlashlari kerak.

Talabalar tegishli Universitet buyrug'i bilan belgilangan qoidalarga rioya qilishlari shart va talabalarga ogohlantirish yoki hayfsan intizomiy jazo chorasini qo'llanilishi mumkin.

5. Talabalarining odob-axloqqa oid majburiyatlari

a) TIUE hududida:

- hududga kirishda talabalik ID kartasini taqdim etish;
- hududni ifloslantirmaslik va chiqindilarni faqat maxsus belgilangan joylarga tashlash;
- o'qituvchilar va xodimlar bilan uchrashganda, ular bilan salomlashish;
- o'quv mashg'ulotlari vaqtida hududda sababsiz yurmaslik;
- TIUE mulki (ko'char va ko'chmas mulki, o'simlik va hayvonot dunyosi va hokazolar)ga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish;
- kiyinish (sport kiyimi kiyish taqiqlanadi) va muomala madaniyatiga rioya qilish;
- mas'ul shaxslarning ruxsatisiz turli xil reklama vositalarini osib qo'yimaslik;
- kundalik hayotda tinchlikni saqlash;
- narkotik va psixotrop moddalar, alkogol va tamaki mahsulotlarining iste'mol qilinishi hamda tarqatilishiga qarshi kurashish. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga ko'ra, yuqorida ko'rsatilgan holatlar yuzasidan tegishli organlarni o'z vaqtida xabardor qilmaslik jinoiy javobgarlikka tortish uchun sabab bo'lishi mumkinligi ta'kidlangan.

b) auditoriyada:

- mobil aloqa vositalarini o'chirish;
- o'quv mashg'uloti vaqtida o'rinsiz gaplashmaslik;
- jihozlarni asrab-avaylash, partalarga yozmaslik;

- qog‘oz va boshqa keraksiz buyumlarni qoldirmaslik;
- ovqatlanmaslik, saqich chaynamaslik.

Muhim, Universitet ma‘muriyati yo‘qolgan va tashlab ketilgan buyumlar uchun javobgar emas.

d) umumiy ovqatlanish joylarida:

- taomlarni olishda «Navbat» tartibiga rioya qilish;
- navbatlarda o‘qituvchilar, ayollar va yoshi kattalarga hurmat ko‘rsatish;
- ovqatlanish vaqtida shovqin solmaslik;
- umumiy ovqatlanish shoxobchasida belgilangan tartib-qoidalarga rioya qilish.

e) Axborot-resurs markazida (ARM):

- ARM xodimlari bilan xushmuomalada bo‘lish;
- kitoblar va jihozlarga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish;
- baland ovozda so‘zlashmaslik va atrofdagilarga xalaqit bermaslik;
- qog‘oz, saqich va boshqa chiqindilarni qoldirib ketmaslik;
- kitoblarni olish va topshirish tartib-qoidalariga rioya qilish.

f) talabalar turar joylarida:

- shaxsiy buyumlarni yoningizda saqlash, turar joy mulkiga zarar etkazmaslik;
- elektr energiyasi, tabiiy gaz va suvdan tejamkorona (ratsional) foydalanish;
- turar joy, sanitariya va gigiyena xonalaridan foydalanish qoidalariga rioya qilish;
- talabalar turar joyi “Nizomi” va “Ichki tartib qoidalari”ga qat’iy rioya qilish.

g) sport majmualarida:

- sport majmuasiga xos bo‘lgan kiyim va poyabzallarda kirish;
- madaniyatli bo‘lish;
- sport inventarlariga nisbatan ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish;
- mashg‘ulotlardan keyin sport inventarlarini belgilangan joylarga qayta topshirish;
- sport majmuasining belgilangan tartib-qoidalariga rioya qilish.

h) Madaniyat saroyida va boshqa ommaviy tadbirlar o‘tkaziladigan joylarda:

- o‘rindiqlar va boshqa jihozlarga nisbatan madaniy munosabatda bo‘lish;
- ommaviy tadbirlar vaqtida hushtak chalmaslik, baqirmaslik, tadbir tugashidan oldin sababsiz chiqib ketmaslik;
- uhlab o‘tirmaslik, o‘rindiqlarga yotib olmaslik, bir-biri bilan gaplashmaslik, yon atrofdagilarga xalaqit bermaslik.

Shuningdek,

- turli davralarda o‘zining namunaviy xulqi va bilimi bilan TIUE universiteti talabasi haqida yuksak ijobiy taassurot hosil qilishga intilish;

- doimo komillikka intilish, halollik va adolat bilan hayot kechirish kabi olijanob fazilatlarni chuqur anglash;
- Universitet manfaati, uning sha'ni va shonli an'analari, obro'si hamda nufuzi to'g'risida qayg'urish, ularni saqlab qolishga jonkuyarlik qilish va ularga hurmat bilan munosabatda bo'lish.

Talabaga quyidagilar qat'iyon man etiladi:

- Universitet hududida chekish;
- o'qituvchilarga qo'pollik qilish, mashg'ulotlar vaqtida asossiz gapirish;
- o'qituvchi bilan boshqalarning bahosini muhokama qilish;
- xodimlar va o'z o'rtoqlariga nisbatan hurmatsizlik qilish;
- mashg'ulotlarni o'tkazib yuborish yoki kechikib kelish;
- mashg'ulotlar vaqtida o'qituvchining ruxsatisiz auditoriyani tark etish;
- boshqa talabalarga qasddan ziyon yetkazish.

Talabalar tomonidan Universitetning ichki tartib-qoidolari buzilgan taqdirda ularga nisbatan turli ta'sir choralari qo'llanilishi mumkin. Taqdim etilgan ta'lim resurslariga foydalanishni cheklash, Universitet hududi va binosiga kirish, Universitetdan chetlashtirish.

6. Ta'lim jarayoni

Universitetda ta'lim kunduzgi ta'lim shaklida talaba tanlagan yo'nalishiga qarab ingliz, o'zbek va rus tillarida olib boriladi.

Universitetda mashg'ulotlar ma'ruzalar, seminarlar, amaliy mashg'ulotlar, mahorat darslari va ishlab chiqarish/kompaniyalarga tashriflar shaklida o'tkaziladi. Ta'lim jarayoni o'quv qo'llanmalari bilan amalga oshiriladi, shuningdek, individual va guruhlarda olib boriladi. Topshiriqlar va test materiallari turlari modulning o'ziga xos xususiyatlariga, shuningdek, dastur oxirida erishiladigan o'quv natijalariga qarab farq qilishi mumkin.

Universitetda o'quv jarayoniga talabalarning bilim va mustaqil ta'lim olishini qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan **kredit-modul tizimi** joriy qilingan. Kredit-modul tizimida talabalarning bilimni baholashning shaffofligi ta'minlanadi. Universitetlararo talabalar almashinuvi (akademik mobillik) imkoniyati mazkur ta'lim tizimining asosiy afzalliklaridan biri hisoblanadi. Kredit ta'lim tizimida muvaffaqiyatga erishish uchun talaba quyidagi talablarga javob berishi kerak:

- ma'ruza, seminar va boshqa tadbirlarda muntazam ravishda faol qatnashish;
- tanqidiy, ijodiy va tahliliy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish;
- mas'uliyatli bo'lish;
- o'z oldiga aniq maqsad qo'ya olish va unga erishish uchun mustaqil harakat qilish;
- asosiy va qo'shimcha modullarni o'rganish;
- mustaqil bilim olish qobiliyatini doimiy ravishda rivojlantirish.

Universitet ham kredit, ham kreditlar berilmaydigan modullarni o'qitish huquqiga ega. Kredit modullari belgilangan formatda baholanadi va o'rtacha ballga ta'sir qiladi (GPA). Kreditlar berilmaydigan modullar majburiy yoki tanlov fanlari talabalarning xohishiga ko'ra bo'lishi mumkin va o'rtacha ballga (GPA) ta'sir qilmaydi.

Ta'limning kredit tizimida Universitet tomonidan taqdim etilgan ta'lim resurslaridan maksimal darajada foydalanish zarur. Baholash talaba tomonidan modulni to'liq yoki qisman o'zlashtirishga asoslanadi. O'zlashtirish - kredit jamg'arishning asosiy mezon hisoblanadi.

➤ Kredit - talaba tomonidan ma'lum modul bo'yicha o'zlashtirilgan o'quv yuklamasining o'quv natijalariga ko'ra o'lchov birligi. Kreditlar qoidaga muvofiq butun yoki kasr sonlarda ifodalanishi mumkin. Siz tanlagan ta'lim yo'nalishi bo'yicha har bir fan bo'yicha kreditlar bilan <https://tiue.uz> rasmiy veb-saytda tanishishingiz mumkin.

➤ GPA-(Grade Point Average) reyting shkalasi o'quvchining ta'lim muassasasidagi o'quv faoliyatining raqamli bahosi bo'lib, bajarilgan topshiriqlar bo'yicha o'rtacha ballga asoslanadi. GPA o'rtacha ball bo'lib, har bir bahoga raqamli qiymat qo'yish (0 dan 5 gacha, 5 "A" yoki "A'lo" ekvivalenti) va keyin quyidagi formula bo'yicha hisoblangan qiymatni topish yo'li bilan hisoblanadi. (1-ILOVA)

Barcha o'quv materiallari elektron formatda (elektron darsliklar) taqdim etiladi, ularga kirish LMS tizimi orqali ta'minlanadi. Shu maqsadda, talaba Universitetdan tashqarida kompyuter, MS Office (yoki shunga o'xshash matnni qayta ishlash/taqdimot dasturlari) va Internetga kirish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak. LMS tizimiga mobil qurilma orqali kirish ba'zi funksiyalarni qo'llab-quvvatlamasligi mumkin.

O'qish boshida talabaga Universitet tomonidan universitet elektron pochtasidan foydalanish uchun login va parol beriladi, bu orqali universitet bilan doimiy aloqa o'rnatiladi. **Elektron pochta va LMS universitet va talabalar o'rtasida ma'lumot almashishning asosiy rasmiy vositasidir. Talaba elektron pochta o'z vaqtida tekshirish va Universitet elektron pochtaga yuborilgan ko'rsatmalarga muvofiq harakat qilishi shart.**

Universitetda bepul Wi-Fi mavjud bo'lib, talabalar uchun yuqori tezlikdagi Internetga ulanishga ega va undan universitet hududida foydalanish mumkin. Talabalar Universitet laboratoriyalarida mavjud kompyuterlardan axborot-texnologiyalari darslari jadvaliga muvofiq foydalanishlari mumkin. **Shu bilan birga, kompyuter va Internetdan faqat o'quv dasturiga muvofiq ta'lim olish maqsadida foydalanish mumkin.**

7. Tildan foydalanish

Universitetda ta'lim talaba ro'yxatdan o'tishda tanlagan tilida olib boriladi. Shuning uchun talabalar o'quv jarayonida, shu jumladan tengdoshlari bilan muloqotda tegishli tildan foydalanishga intilishlari kerak. Talabalar, agar boshqacha ko'rsatilmagan bo'lsa, o'qituvchilarga (ismi va sharifi) murojaat qilish uchun tegishli muloqot usullaridan foydalanishlari kerak.

Talabalar Universitetda va Universitet tashqarisida muloqot qilishda, jumladan, ijtimoiy tarmoqlarda, film tomosha qilishda va kitob o'qishda tanlangan ta'lim tilidan

foydalanishlari qat'iy tavsiya etiladi. Talabalar o'z o'qituvchilari va ustozlaridan mustaqil foydalanish uchun mos materiallar bo'yicha maslahat oladilar.

8. Talabalar farovonligi haqida qayg'urish

Biz talabalarimizning farovonligi haqida qayg'uramiz. Agar talaba Universitet xodimlari yoki o'qituvchilari bilan muloqot qilishni istasa, eshiklar tom ma'noda ham, majoziy ma'noda ham doimo ochiq.

Ota-onalar ham kelib, Universitet xodimlari va o'qituvchilari bilan o'zbek, rus va ingliz tillarida suhbatlashishlari mumkin.

9. Talabalarning sog'lig'i va xavfsizligi

Universitet o'z dasturlarini yorqin, zamonaviy va xavfsiz binolarda olib boradi. Ma'muriyat Universitet hududiga faqat vakolatli shaxslar va talabalar kirishini ta'minlaydi. Shu sababli, talabalarning ota-onalari yoki do'stlari so'rov bo'yicha shaxsiy ma'lumotlarni, shuningdek, Universitetga tashrif buyurish maqsadi haqida batafsil ma'lumot taqdim etishlari kerak.

Shuningdek, e'tibor bering, Universitetda uzluksiz videokuzatuv tizimi tashkil etilgan.

Universitetimiz ta'lim olish uchun xavfsiz joy bo'lishini ta'minlash uchun biz talabalarimizdan hurmat ko'rsatish va sog'lom fikrlashlari hamda Universitet hududida har qanday muammo yoki shubhali holatlar haqida xabar berishlarini so'raymiz.

Universitet talabalar mulkining xavfsizligi uchun javobgar emas, shuning uchun biz BARCHA talabalardan hushyor bo'lishlari va har doim shaxsiy qimmatbaho buyumlarini yonlarida saqlashlarini so'raymiz.

Biz hammadan universitetning sanitariya qoidalariga, ayniqsa COVID-19 yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan boshqa pandemiya sharoitida tartib-qoidalarga qat'iy rioya etishlarini talab qilamiz.

10. Talabalar turar joyi

Talabalar turar joyi – bu vaqtinchalik, o'quv yili davomida boshqa hududlardan kelgan talabalar yashash joyi.

Bugungi kunda Universitet yotoqxonasi Universitet hududida joylashmaganligi sababli, yotoqxonada yashovchi talabalar Universitetga tashrif buyurishida o'z xavfsizligi uchun shaxsiy javobgarlikni o'z zimmasiga olishini unutmaslik kerak.

Agar talaba Universitet yotoqxonasida yashamasa, u holda talaba xonadon yoki uy egasi bilan qonuniy ijara shartnomasini imzolash orqali o'z xavfsizligi va shaxsiy buyumlarining saqlanishi, shuningdek, turar joyining xavfsizligini ta'minlash uchun shaxsan javobgardir. Talabalar O'zbekiston Respublikasining amaldagi normativ-huquqiy hujjatlariga muvofiq vaqtinchalik ro'yxatdan o'tgan manzilda yashashlari shart.

MUHIM: Talabalarning xavfsizligi – ularning shaxsiy javobgarligi, Universitet yotoqxonasidan tashqarida yashagan talabalar xavfsizligiga Universitet javobgar emas.

Yotoqxonaga taqdim etiladi:

Birinchi navbatda olis hududlardan kelgan va Toshkent shahrida doimiy yashash joyiga ega bo'lmagan 1-kurs talabalariga.

Bo'sh joylar qolganidan so'ng bo'sh joylar 2- va 3-kurs talabalari o'rtasida taqsimlanadi.

Talabalar turar joyiga joylashish tartibi:

➤ Yotoqxonaga joylashish uchun Talabalar va yoshlarni qo'llab-quvvatlash bo'limiga ariza topshirish.

➤ Bo'lim tomonidan so'ralgan barcha kerakli hujjatlarni taqdim etish.

➤ Talabaga yotoqxonaga shartnomasida ko'rsatilgan to'lov to'liq amalga oshirilganidan so'ng yotoqxonadan joy ajratiladi.

➤ Talaba yotoqxonada yashash paytida o'z hayoti va sog'lig'i uchun to'liq javobgarlikni o'z zimmasiga oladi.

➤ Talaba yotoqxonada qolish paytida oylik to'lovni o'z vaqtida to'lashga shaxsan mas'ul hisoblanadi.

11. Universitetda o'rnatilgan umumiy qoidalar**Universitetda hamma rioya qilishi kerak bo'lgan muayyan qoidalar mavjud:**

➤ Mashg'ulot boshlanishidan 5 daqiqa oldin kelish va tasdiqlangan jadvalga muvofiq mashg'ulotlarda faol qatnashish;

➤ O'qituvchi rahbarligidagi mashg'ulotlarga to'liq e'tibor qaratish;

➤ Uy vazifalarini, jumladan, mustaqil ta'lim uchun topshiriqlarni bajarish;

➤ Mobil qurilmalarni ovozsiz rejimga o'tkazish va ulardan faqat o'qituvchi ko'rsatmasiga ko'ra auditoriyada tegishli vazifalarni bajarish uchun foydalanish;

➤ Universitet hududi, auditoriyalari va dam olish zonalarini toza va ozoda saqlash

➤ Ma'ruzachilar bilan muloqotda bo'lish va mavzuga oid tegishli savollar berish;

➤ Qunt bilan o'qish va o'qish davomida xolislikni ta'minlash;

➤ O'qituvchining bilimidan imkon qadar samarali foydalanish

O'z navbatida, talabalar o'z o'qituvchilaridan quyidagilarni kutishi mumkin:

➤ Barcha mashg'ulotlarga o'z vaqtida kelish;

➤ Zaruratga ko'ra zamonaviy ta'lim usullaridan foydalangan holda mashg'ulotlar o'tkazish;

➤ Talabalarni mavzuni osonroq o'zlashtirishga yo'naltirish;

➤ Universitet standartlariga muvofiq ishlab chiqilgan va tasdiqlangan dastur bo'yicha mashg'ulot o'tkazish;

- Imtihonlarga tayyorlanish;
- Oraliq va yakuniy topshiriqlarni bajarish sifati bo'yicha talabalarning ishi haqida fikr bildirish.

12. Talabalar vakillari forumi (Guruh liderlari)

Student union TIUE — TIUE talabalari va bitiruvchilari uyushmasi hisoblanadi. Uyushma faoliyati talabalar hayotining barcha sohalarini qamrab oladi: o'qish, mehnat, sport, bo'sh vaqtni o'tkazish, axborot va intellektual faoliyati, ijodkorlik va boshqalar.

Guruh liderlari talabalar va universitet rahbariyati o'rtasida aloqani ta'minlaydi. Dastur boshlanishida guruh liderlari "Har bir guruhdan bitta vakil" tamoyili asosida saylanadi. Guruh liderini tanlash bevosita guruh talabalari tomonidan ovoz berish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Saylangan liderlar guruh liderlarining birinchi yig'ilishida Talabalar va yoshlarni qo'llab-quvvatlash bo'limi tomonidan o'z majburiyatlari, talabalar bilan qanday ishlash va fikr-mulohazalarni olish bo'yicha trening o'tkaziladi.

Liderlar yig'ilishlari har oy o'tkaziladi. Liderlardan biri yig'ilishlar bayonnomasini yuritish uchun mas'ul sifatida tanlanadi.

Shuningdek, yiliga bir marta «Student union» ustavi asosida Talabalar kengashi rahbari lavozimiga saylovlar o'tkaziladi, saylangan rahbar o'z navbatida turli yoshlar loyihalari, dasturlari, universitet va fakultetlar miqyosida talabalar bo'sh vaqtlarini tashkil qilish, talabalar konferensiyalari, turli bayramlar o'tkazish, ijtimoiy tarmoqlarda Universitet hayotini yoritishni muvofiqlashtiradi.

13. Talabalarni qo'llab-quvvatlash va resurslar

Universitet talabalarni butun o'qish davrida qo'llab-quvvatlashga intiladi. Shu maqsadda Universitetda talabalar uchun mentorlik va akademik qo'llab-quvvatlash tizimi yaratilgan bo'lib, mazkur tizim Universitetda ta'lim olishni yengillashtirish uchun mo'ljallangan.

13.1. Talabalarni qo'llab-quvvatlash tuzilmalari

Zaruratda talabalar universitetning talabalarni qo'llab-quvvatlaydigan bo'limlariga murojaat qilishlari mumkin.

13.1.1. O'quv ishlari va yoshlar bilan ishlash bo'yicha birinchi prorektor

Universitetda ta'lim jarayonida talabalarga ma'muriy, o'quv va tarbiyaviy qo'llab-quvvatlash bo'yicha quyidagi ishlarni amalga oshiradi, xususan:

- ommaviy tadbirlarni tashkil etish va muvofiqlashtirish, ma'naviy-ma'rifiy ishlar yo'nalishida zarur me'yoriy va uslubiy hujjatlarini, amaliy tadbirlar rejalarini, talabalarning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishni tashkil qilish bo'yicha ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni joriy etish;
- Universitetning barcha talabalari va ularning ota-onalari bilan hamkorlikda turli

tadbirlar, jumladan, startap loyihalari, yoshlar konferensiyalari, forumlar uyushtirish, talabalarning Universitet hayotida ishtirokini ta'minlash;

- Universitetning barcha talabalari o'rtasida huquqiy tarbiyani amalga oshirish va huquqbuzarlikning oldini olish maqsadida huquq-tartibot idoralari bilan hamkorlikda ishlash;
- mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar bo'yicha tushuntirish ishlarini olib borish, talabalar o'rtasida ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy-ma'rifiy hayot haqida muntazam fikr va axborot almashish va h.k.

13.1.2. Akademik ishlar bo'yicha prorektor

Universitetda o'qish jarayonida talabalarga, xususan, quyidagi asosiy masalalar bo'yicha har tomonlama akademik yordam ko'rsatadi:

- ta'lim jarayonini ta'lim standartlari va xalqaro standartlar asosida tashkil etish, bilim, o'zlashtirish ko'nikmalarining mazmuni va tayyorlanish darajasiga qo'yiladigan talablar majmuasini ishlab chiqish, shuningdek, barcha kafedralar, professor-o'qituvchilar va xodimlarning ishini tashkil etish;
- akademik vazifalarni rivojlantirishning maqsad va strategiyasini belgilash va ta'lim jarayoni bilan bog'liq barcha turdagi masalalar bo'yicha qarorlar bajarilishini tashkil etish, shuningdek, o'quv jarayonini monitoring qilish;
- bakalavriat, magistratura va doktoranturaga qabul qilish shartlari hamda o'qish tartibi (kunduzgi, kechki, sirtqi, maxsus sirtqi, qo'shma dasturlar asosida), o'quv rejasi va o'quv dasturi (Syllabus) bo'yicha takliflar ishlab chiqish;
- malakali, jumladan, xorijiy tajribaga ega kadrlar bilan ta'minlash, professor-o'qituvchilar va boshqa toifadagi xodimlarning malakasini tizimli ravishda oshirish, shuningdek, boshqa oliy ta'lim muassasalari bilan tajriba almashish bo'yicha choralar ko'rish;
- ta'lim jarayonini ijtimoiy-iqtisodiy sohadagi mavjud ehtiyojlardan kelib chiqqan holda, ilg'or axborot texnologiyalari va ilmiy-tadqiqot ishlariga asoslangan zamonaviy pedagogik va ta'lim texnologiyalari va uslublari asosida tashkil etish.

13.1.3. Akademik boshqaruv ofisi

Universitetga o'qishga qabul qilish va o'qishdan chetlashtirish, akademik kechiktirish va kursdan kursga o'tkazish, boshqa oliy ta'lim muassasalariga ko'chirish jarayonlarini ta'minlaydi, imtihon jarayonlarini amalga oshiradi va nazorat qiladi, Universitetda ta'lim jarayonida talabalarga ma'muriy yordam ko'rsatadi, xususan:

- talabalar davomatini muntazam monitoring qilish, moliyaviy va akademik qarzlarni, kursdan kursga o'tish, akademik ma'lumotlar olish, transkript va akademik kechiktirishni ro'yxatdan o'tkazish, Universitetdan chetlashtirish, o'qishni boshqa oliy ta'lim muassasalariga ko'chirish va ta'lim jarayonida yuzaga keladigan boshqa muammolarni hal qilish;
- talabalar va talabalar kengashi bilan yaqindan hamkorlik qilib, talabalarning ijtimoiy hayotini tashkil etish.
- Universitetga kirish uchun arizalarni ko'rib chiqadi;

- akademik xarakterdagi buyruqlar tayyorlaydi;
- hamkor universitetlar dasturlariga talabalarni ro'yxatdan o'tkazadi;
- talabalarning shaxsiy ma'lumotlari bilan ishlaydi va hujjatlarning saqlanishini ta'minlaydi;
- talabalar kontingenti bo'yicha statistik hisobotni yuritadi.
- imtihon jarayonlarini tashkil etish, jumladan, imtihon ishlarini tizimlashtirish va natijalarini belgilangan tartibda e'lon qilish;
- imtihonlarni qayta ishlash tizimida eng yuqori xavfsizlik va standartlarni, jumladan, natijalarni o'z vaqtida e'lon qilishni ta'minlash.

13.1.4. Talabalar va yoshlarni qo'llab-quvvatlash bo'limi

- Mazkur bo'limning asosiy vazifasi Universitetda sog'lom, intellektual, ma'naviy-axloqiy, vatanparvarlik muhitini yaratish, Universitetda qiziqarli va bahs munozaraga boy bo'lgan talabalar hayotini tashkil qilish, shuningdek, ma'muriyat va talabalar o'rtasida samarali muloqotni ta'minlashdan iborat. tarbiyaviy ishlarni olib borish va talabalar tomonidan Universitetning ichki tartib-qoidalariga rioya etilishini nazorat qilish, shuningdek, talabalarni yotoqxonaga taqsimlash va h.k.;

13.1.5. Axborot resurs markazi

Axborot resurs markazi - bir qator ta'lim resurslarini o'z ichiga olgan kutubxonani tashkil qiladi. ARM internet tarmog'iga ulangan kompyuterlar, nusxa ko'chirish moslamasi va printerlar, onlayn ma'lumotlar bazalari va talabalar uchun elektron kutubxona tizimi bilan jihozlangan. Axborot resurs markazida hozirgi kunda 20 mingdan ortiq o'quv adabiyotlari, badiiy adabiyotlar, va boshqa qiziqarli ilmiy-ommabop asarlar to'plangan. ARMdagi kompyuterlar orqai barcha adabiyotlari, ilmiy asarlar, o'quv qo'llanmalarini yuklab olish mumkin. [##signin](#) havolasi orqali Elektron kutubxona bilan tanishish mumkin.

ARMda mavjud elektron resurlar:

<https://fs.tiue.uz> – Elektron kutubxona

<https://actaeducation.uz> – Ilmiy jurnal

<https://mmit.tiue.uz> – Konferensiya to'plamlari

<https://www.webofscience.com> – Xalqaro ilmiy nashrlar bazasi

<https://www.scopus.com> - Xalqaro ilmiy nashrlar bazasi

14. Akademik taqvim

Universitet tomonidan tasdiqlangan bir o'quv yili davomida o'quv va nazorat tadbirlari (sana va muddatlari), kasbiy amaliyotlarni o'tkazish uchun haftalar va / yoki dam olish kunlari (ta'til va bayramlar) ko'rsatilgan jadval. Akademik davr (semestr) – Universitetda bir semestr davomida 15 haftadan iborat nazariy ta'lim olish davri. **(2-ILOVA)**

15. Darslar jadvali

Darslar jadvali LMS va/yoki boshqa elektron platformada mavjud. Taqdim etilgan ma'lumotlar e'lon qilingan paytda to'g'ri hisoblanadi va o'zgartirish va/yoki qo'shimchalar

kiritilishi mumkin. Universitet zarur hollarda darslar jadvaliga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish huquqini o'zida saqlab qoladi. **(3-ILOVA)**

16. Universitetning ish vaqti

Universitetning ish vaqti dushanbadan shanbagacha. Soat 9:00-18:00 gacha.

17. Darslarga qatnashish

Talaba tegishli ta'lim yo'nalishi bo'yicha akademik taqvim va darslar jadvaliga muvofiq barcha mashg'ulotlarga qatnashish majburiyatini oladi. Agar uzrli sabablar mavjud bo'lsa, talaba ma'lumotnomani olgan kundan boshlab uch kun muddatda Talabalar va yoshlarni qo'llab-quvvatlash bo'limiga taqdim etish majburiyatini oladi. Ushbu muddatdan keyin sertifikat haqiqiy deb hisoblanmaydi. Batafsil ma'lumot **III bob. BAHOLASH TIZIMI**da keltirilgan.

18. Guruhdan guruhga ko'chirish

Universitet o'z xohishiga ko'ra va ma'lum mezonlar asosida talabalarni guruhlariga taqsimlash huquqiga ega. Universitetda test yoki o'quv ko'rsatkichlariga ko'ra talabalarni guruhlariga taqsimlash mumkin. Ushbu yondashuvning maqsadi universitet professor-o'qituvchilariga tegishli o'qitish metodikasi va tegishli o'quv yuklamasini tanlash imkonini beradigan talabalar uchun qulay sharoitlar yaratishdir.

Talabalarni bir guruhdan ikkinchi guruhga ko'chirish Universitet rahbariyatining tegishli qaroriga ko'ra jiddiy asos keltirilgandagina amalga oshiriladi, bunda, talabalar Universitet ma'muriyatining barcha talabalarini bajarish majburiyatini oladilar.

19. Akademik kechiktirish

Akademik kechiktirish - bu talabaga uzrli sababga ko'ra ma'lum bir o'quv yilida o'qishni boshlashni kechiktirish huquqiga ega bo'lgan jarayondir. Buning uchun talaba rektor nomiga ariza yozib, Talabalar va yoshlarni qo'llab-quvvatlash bo'limida kerakli hujjatlarni to'ldirishi kerak. Universitetda kamida bir (1) to'liq akademik semestr yoki yilni muvaffaqiyatli tugatgan (akademik qarzsiz) talabalar quyidagi hollarda akademik kechiktirish uchun ariza berishlari mumkin:

- salomatligini tiklash uchun;
- yaqin qarindoshlarining jumladan, ota-onasi, turmush o'rtog'i, farzandlari, yaqin qarindoshlari kasalligi yoki vafoti sababli;
- homiladorlik, bolalarni parvarish qilish uchun;
- boshqa holatlar Universitet rahbariyati tomonidan alohida tartibda ko'rib chiqiladi.

Ruxsat olish uchun talaba barcha kerakli hujjatlarni Talabalar va yoshlarni qo'llab-quvvatlash bo'limiga topshirishi kerak.

IZOH: Akademik kechiktirish faqat uzoq muddatli mehnatga layoqatsizlik davrlari

uchun ruxsat etiladi. Bir necha kun yoki haftalik muddatlar akademik kechiktirish uchun qonuniy asos sifatida qabul qilinmaydi.

Akademik kechiktirish uchun barcha arizalar sabablarga ko'ra hujjatlari yetarlicha to'liq va batafsil bo'lishi kerak.

Faqat istisno hollarda, uzrli sabablar bo'lsa Universitet ma'muriyati semestr davomida akademik kechiktirish berishi mumkin. Bunday hollarda quyidagilar hisobga olinadi:

- uzrli sabab tasdiqlangach, talabalar tomonidan akademik kechiktirish rasmiylashtirish kunigacha ta'lim xarajatlari to'liq qoplanganligi;

- mashg'ulotlar qayta boshlanganidan so'ng talabalar tegishli semestrda boshidan o'qishni boshlashlari kerak. Bunda, akademik kechiktirish oldingi bir necha mashg'ulotlarga qatnashganligi haftalari hisobga olinmaydi.

Akademik kechiktirish universitetning tegishli buyrug'i imzolanganidan keyingina rasmiy ravishda berilgan hisoblanadi. Talaba o'zining akademik kechiktirilganligini rasmiy tasdiqlovchi buyruqning nusxasini olishini ta'minlash uchun javobgardir.

Akademik kechiktirish ko'pi bilan 1 (bir) o'quv yili uchun berilishi mumkin. Har bir o'quv yili/tegishli semestr boshlanishidan oldin har yili akademik kechiktirish so'rovini yangilash orqali kechiktirish muddati ko'pi bilan 5 (besh) yilga uzaytirilishi mumkin.

O'qish tiklangandan so'ng Talabalar Universitet ma'muriyati tomonidan belgilangan tegishli modullar bo'yicha o'qishni yakunlashlari kerak bo'ladi. Universitetning ta'lim dasturi har yili qayta ko'rib chiqilishini hisobga olgan holda, talaba o'qishni tiklaganidan so'ng, tegishli o'quv yilida yuzaga kelgan akademik farqqa muvofiq o'qish yoki qo'shimcha tayyorgarlikdan o'tishi kerak. Istisno hollarda, talabaning akademik qarzi bo'lsa, talaba barcha qo'shimcha moliyaviy xarajatlarni qoplagan holda barcha akademik qarzlarni o'z vaqtida topshirish majburiyatini oladi.

Akademik kechiktirish muddati tugagach, talabalar kechiktirish muddati tugashidan ikki hafta oldin yoki yangi o'quv yili boshlanishidan kechiktirmay o'z o'qishlarini davom ettirish istagi to'g'risida Universitetga yozma ravishda xabar berishlari shart. Universitetda o'qishni davom ettirish istagi to'g'risida yozma arizasi bo'lmagan talabalar Universitetdan chetlashtiriladi. Agar chetlashtirilgan talabada kelgusida Universitetda o'qishni davom ettirish xohishi bo'lsa, talabaga yangi talabalar sifatida o'qishni davom ettirish uchun qayta ariza topshirish huquqi va imkoniyati beriladi.

20. Aloqa tizimlari

Universitetda asosiy aloqa vositasi elektron pochta va LMS tizimi hisoblanadi. Shuning uchun elektron pochta manzilingiz yangilanganligiga ishonch hosil qiling va elektron pochtangizni muntazam tekshirib turing. O'qituvchi bilan muloqot qilishning asosiy vositasi elektron pochta va LMS bo'ladi, shuningdek, o'qituvchi bilan shaxsan ko'rishish imkoniyati mavjud. O'qituvchining roziligi bilan SMS yoki boshqa aloqa vositalari orqali ham bog'lanishingiz mumkin. O'qituvchilarga mashg'ulot vaqtida telefon qo'ng'iroqlariga javob berishga ruxsat berilmasligi sababli ularga oldindan kelishuvsiz to'g'ridan-to'g'ri qo'ng'iroq

qilmaslik so‘raladi.

O‘qituvchining uzrli sabablariga ko‘ra mashg‘ulot bekor qilinsa, Universitet tegishli ravishda darslar jadvalini yangilaydi yoki elektron pochta va/yoki SMS orqali talabalarni xabardor qiladi.

E’tibor qaratamiz, ustoz yoki modul o‘qituvchisining oldiga ish vaqtida yoki belgilangan tartibda, boshqa xodimlarning oldiga esa ish vaqtida tashrif buyurishingiz mumkin.

21. LMS (ta’limni boshqarish tizimi)

Universitet hozirda ta’limni boshqarish tizimi sifatida lms.tiue.uz ta’lim platformasidan foydalanmoqda. Ushbu platforma quyidagilar uchun ishlatiladi:

- talabalar davomatini aniqlash;
- darslar jadvalini e’lon qilish;
- modullar bo‘yicha o‘quv materiallari va ta’lim kontentini joylashtirish (masalan, kitoblar, slaydlar, eslatmalar, ish varaqlari, viktorinalar va boshqalar);
- uy vazifalari, oraliq imtihonlar, kurs topshiriqlarini va hokazolarni e’lon qilish
- muhim ma’lumotlar, e’lonlar, shaxsiy xabarlarni yuborish va o‘qituvchilarning fikr-mulohazalarini joylashtirish;
- moliyaviy qarz va to‘lov holatini e’lon qilish;
- baholarni e’lon qilish;
- va boshqalar.

Har bir talabaga quyidagilarga ruxsat beriladi:

- TIUE.uz domenidagi Universitetning elektron pochta, u tekshirilishi va butun o‘qish davrida foydalanilishi lozim;
- Internetdagi LMS tizimi;
- Mobil telefon yoki planshetingizga o‘rnatish imkoniyatiga ega LMS ilovasi;
- LMSGa kirish uchun hisobga olish ma’lumotlariga (foydalanuvchi nomi va parol).

MUHIM!!! Talabalarga taqdim etilgan maxsus login va parol asosida LMS tizimiga kirish amalga oshiriladi. Kirish huquqiga ega bo‘lgandan so‘ng, talaba tizimning o‘z vaqtida tekshirilishi, ma’lumotlari va parolining xavfsizligi uchun to‘liq javobgardir. Bu ma’lumotlarning barchasini doimo o‘zida saqlash va ruxsatsiz begona shaxslarga berilmasligini ta’minlash talabaning mutlaq mas’uliyatidir.

22. Talabaning identifikatsiya kartasi (ID karta)

Identifikatsiya kartasi – shaxsni tasdiqlovchi karta bo‘lib, talaba shaxsini aniqlash va Universitet hududiga kirish uchun talab qilinadi.

ID kartasi mavjud bo'lmagan talabalar Universitet hududiga kirishlari taqiqlanadi.

Mashg'ulotlar boshlanganidan keyin 5 daqiqagacha kechikishga ruxsat beriladi. Bu vaqtdan keyin kechikib kelgan talabalar mashg'ulotga to'liq qatnashgan deb hisobga olinmaydi.

Talabaga ID kartasini boshqa shaxsga berishi qat'iyan man etiladi. Universitet hududiga kirish uchun boshqa shaxsga berilgan har ikki tomonning ID kartalari bloklanadi, aybdorlarga nisbatan Universitetda belgilangan qoidalariga muvofiq jarima qo'llaniladi.

Yo'qotgan yoki shikastlangan ID karta egasi Akademik boshqaruv ofisiga zudlik bilan xabar berishi shart. Shundan so'ng ko'rsatilgan bo'limga yozma ravishda maxsus so'rov yuborishi va belgilangan tarif bo'yicha jarima to'lashi kerak.

Talabalar Universitet tomonidan belgilangan tartibda ID kartadan foydalanish qoidalariga rioya qilmasliklari uchun to'liq javobgar bo'ladilar.

ID-kartani yangilash bo'yicha so'rov kamida 1 (bir) hafta ichida ko'rib chiqiladi.

IZOH: Imtihon jarayonida ID-kartadan noto'g'ri foydalanilgan taqdirda, huquqbuzarlik sodir etgan shaxslarga qattiq hayfsan/ogohlantirish beriladi hamda ular imtihonda ishtirok etishdan chetlashtiriladi.

MUHIM: berilgan ID-kartadan butun o'qish davomida foydalaniladi. Uning ishlash holati uchun talabalar javobgardir.

23. Talabaning shaxsiy ma'lumotlariga o'zgartirish kiritish

Talabalar har qanday o'zgartirilgan/almashtirilgan, jumladan, doimiy (vaqtinchalik) yashash manzili, ismi/familiyasi, pasport/ID-karta va telefon raqami o'zgartirilgandan keyin 2 ish kuni ichida o'zlarining shaxsiy ma'lumotlariga kiritilgan o'zgarish haqida Akademik boshqaruv ofisiga yozma ravishda xabar berishlari shart.

O'z vaqtida xabar bermaslik talabalarga dars bekor qilinganligi, imtihon natijalari yoki boshqa muhim ma'lumotlar yetkazilishida noqulayliklarga olib keladi.

Talabalar o'zlarining shaxsiy ma'lumotlaridagi o'zgarishlar to'g'risida Universitetga xabar bermagan holatlarda yuzaga keladigan har qanday huquqiy oqibatlar va xarajatlar uchun javobgardirlar. Talabalar o'z ma'lumotlarini o'z vaqtida yangilashi faqat ularning mas'uliyati ekanligini tushunishlari kerak.

24. Bitirganlik haqidagi diplom

24.1. Bitirganlik haqidagi diplom – akademik, moliyaviy yoki boshqa majburiyatlar mavjud bo'lmagan, ta'lim dasturi muvaffaqiyatli yakunlanganidan so'ng beriladigan oliy ta'lim muassasasini bitirganlikni tasdiqlovchi rasmiy hujjatdir.

Ta'lim dasturi asosida o'quv yuklamasini muvaffaqiyatli yakunlagan bitiruvchilarga O'zbekiston Respublikasida oliy ma'lumot to'g'risidagi hujjat sifatida tan olinadigan Universitet tomonidan davlat namunasidagi diplom, shuningdek, OTHM dasturini muvaffaqiyatli tamomlagan talabalarga OTHM dasturi bo'yicha qo'shimcha diplom (ta'lim ingliz tilidagi dastur uchun) beriladi.

Diplom olish uchun talabalar barcha tegishli fanlardan imtihonlarni muvaffaqiyatli topshirib, minimal talablarga javob berishi hamda Universitetdan akademik va moliyaviy qarzdorligi bo'lmashligi kerak. Talabalar Universitetni bitirganlik haqidagi diplomni olish to'g'risida elektron pochta orqali xabardor qilinadi.

ESLATMA: Bitirganlik haqidagi diplom Universitet tomonidan talabaga topshirilgandan so'ng uni saqlash bo'yicha majburiyat to'liqligicha talaba zimmasiga yuklanadi. Yo'qotilgan va zarar yetkazilgan diplomlar uchun javobgarlikni Universitet o'z zimmasiga olmaydi.

24.2. Akademik qarzdorligi bo'lgan talabalarga bitirganlik haqidagi diplom berish tartibi

Agar bitiruvchi kurs talabasining akademik qarzdorligi mavjud bo'lsa (TRAIL), talaba uchun akademik qarzdorligi mavjud fanlardan qaytadan o'qish tashkil qilinadi va buning uchun Universitet tomonidan belgilangan tartibda to'lov undirilishi mumkin. Qayta o'qish davri 60 kalendar kuni hisoblanadi. Bu davr davomida talaba akademik qarzdorligi mavjud fanlarni to'liq o'zlashtirish mas'uliyatini o'z zimmasiga oladi va yozma ravishda kafolatlaydi. Qayta o'qish davri yakunida tashkil qilinadigan imtihon "Latest exam" deb e'lon qilinadi va belgilangan fanlar bo'yicha imtihonlar (asosiy va ikki marotaba qayta urinish) tashkil qilinadi.

Agar talaba imtihon natijalariga ko'ra akademik qarzdorligini muvaffaqiyatli bartaraf eta olmasa, u akademik qarzdor bo'lgan fanlar bo'yicha imtihonlarni Universitet tomonidan tashkil etilgan maxsus komissiyaga belgilangan muddatlarda topshiradi va bu jarayon talaba akademik qarzdorligini to'liq bartaraf etmaguniga qadar davom ettiriladi.

Agar bitiruvchi kurs talabasining akademik qarzdorligi (REMODULE) bo'lsa, Qo'llanmaning 45-bandiga muvofiq, semestr ohirida mazkur o'quv yili uchun tasdiqlangan akademik taqvim bo'yicha imtihonlarni topshirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Akademik qarzdorligi mavjud talabalar tomonidan imtihonlar bilan bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra, masalan, yaqin qarindoshlarining (ona, ota, aka, opa-singil, bobo-buvi va boshqalar) vafoti yoki jiddiy kasalligi tufayli psixologik holatida buzilishlar bo'lganligi haqida asosli hujjat yoki ma'lumotnoma taqdim etilgan holatlarda Universitet kengashi qaroriga ko'ra qayta imtihon tashkil etilishiga ruhsat berilishi mumkin.

Yuqoridagi har ikkala (TRAIL va REMODULE) holatda ham agar talabaning moliyaviy jihatdan ham qarzdorligi bo'lgan taqdirda, ushbu qarzni bartaraf qilganidan keyin bitirganlik haqidagi diplom beriladi.

Shuningdek, bitiruvchi kurs talabasi ham akademik ham moliyaviy qarzdorligini **uch yildan ko'p bo'lmagan muddatda** bartaraf etishi talab etiladi.

25. Diplom dublikati

Diplom dublikatini olishi kerak bo'lgan talabalar Akademik boshqaruv ofisida maxsus shaklni to'ldirib, yozma ravishda ariza topshirishlari shart.

Har bir so'rov uchun ma'lum miqdorda yig'im undirilishi mumkin.

Diplom talaba tomonidan yo'qotilishi yuzaga kelgan taqdirda, universitet ushbu holatga nisbatan hech qanday javobgarlikni o'z zimmasiga olmaydi, bu esa muayyan shart-sharoitlar va tashkiliy jihatlar bilan bog'liq bo'lib, universitetning o'z majburiyatlari va shaxsiy mas'uliyatlariga kirmaydi.

26. Hujjatlarni taqdim etish uchun so'rov

Kollej, litsey yoki umumiy o'rta maktabni bitirganlik haqidagi hujjatlarning asl nusxasini olmoqchi bo'lgan talabalar maxsus shaklni to'ldirib, Akademik boshqaruv ofisiga topshirishlari kerak.

27. Harbiy xizmatga chaqirilish muddatini kechiktirish

O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq, Universitetda ishlab chiqarishdan ajralgan holda (kunduzgi ta'lim shakli) tahsil olayotgan talabalarga muddatli harbiy xizmatni o'tashga kechiktirish beriladi.

28. Xorijiy safarlarni tashkil etish tartibi

Universitet talabalariga o'qish muddati davomida Universitet ma'muriyatining oldindan rozilgisiz mamlakatdan chiqib ketishi taqiqlanadi.

Talabalar rejalashtirilgan xorijiy safar haqida Talabalar va yoshlarni qo'llab-quvvatlash bo'limiga yozma ravishda xabar berishlari va Universitet ma'muriyatining tegishli qarorini kutishlari kerak.

Agar talaba xorijiy davlatlarga rejalashtirilgan safarlari haqida Universitet ma'muriyatini xabardor qilmasa, Universitet Talabani o'qishdan chetlashtirish huquqini o'zida saqlab qoladi.

Xorijiy safar paytida imtihonga kelmagan talabalar avtomatik ravishda imtihondan o'ta olmagan deb hisoblanadi.

Xorijiy safarga ruxsat olish uchun talab etiladigan hujjatlar.

Talabalar ko'rib chiqish uchun quyidagi hujjatlarni taqdim etishlari kerak:

1. Talabaning universitet rektori nomiga mamlakatdan tashqariga chiqish rejalari va maqsadi to'g'risida yozma murojaatini taqdim etish. Bunda, talaba ota-onasining tegishli tasdig'i bilan xorijiy safarning har qanday oqibatlari uchun mas'uliyatni to'liq o'z zimmasida ekanligini ko'rsatib o'tishi talab qilinadi.

2. Xorijga chiqish zarurligini tasdiqlovchi tegishli hujjatlarni taqdim etish (masalan: tibbiy ma'lumotnoma, taklifnoma, viza nusxasi va boshqalar).

29. OTHM va INTI dasturlarini tugatgan talabalar

Ingliz tilida OTHM dastrulari asosida ta'lim oluvchi talabalar har bir muvaffaqiyatli tugatilgan Akademik yil uchun OTHM tomonidan Level Diplomalari (Sertifikat) bilan taqdirlanadilar. Buning uchun talaba O'quv yili uchun ajratilgan barcha kreditlarni to'plashi shart. Level Diplom (sertifikat) QR-kodga ega bo'ladi va talabaning email manziliga OTHM tomonidan yuboriladi. Ushbu QR-kodli sertifikatni Registrator Ofisidan ham olish mumkin.

Sertifikat asl nusxasi IFP talabalariga bepul taqdim etiladi. IFP dan yuqori kurs talabalar sertifikatning aslini olish istagini bildirgan talabalar OTHM tomonidan belgilangan narx (150£) to'lash orqali olishlari mumkin.

IFP kursini muvaffaqiyatli yakunlagan talabalar navbatdagi bosqich (BSc Year 1) ni OTHM Bakalavr dasturlarida yoki INTI bilan hamkorlikda ochildan Bakalavr dasturlarida davom ettirishlari mumkin. OTHM dasturlarida Bakalavr bosqichini muvaffaqiyatli tugatgan talabalar TIUE Bakalvr diplomiga hamda OTHM level diplomi (Sertifikat) ga ega bo'lishadi. OTHM level diplomi (sertifikati) dan voz kechgan talabalarga o'qish muvaffaqiyatli tugatilgandan keyin TIUE Bakalavr darajasi diplomi beriladi.

INTI Universiteti Bakalavr dasturini muvaffaqiyatli tugatgan talabalar yo'nalishga mos INTI Bakalavr darajasi diplomiga ega bo'lishadi.

SHARTNOMA

30. Ta'lim xizmatlarini ko'rsatish shartnomasi bo'yicha moddiy javobgarlik va majburiyatlarning bajarilishini tartibga solish

Universitet va talaba yoki talaba nomidan to'lovni amalga oshiradigan uchinchi tomon o'rtasida Pullik ta'lim xizmatlarini ko'rsatish to'g'risidagi ommaviy shartnoma-oferta (keyingi o'rinlarda - Oferta) tuziladi. Universitet va talaba o'rtasidagi Ofertada Universitet ushbu shartnoma shartlariga muvofiq ta'lim dasturi orqali talabaga ta'lim xizmatlarini ko'rsatish majburiyatini oladi, Talaba esa Oferta shartlariga muvofiq ko'rsatiladigan ta'lim xizmatlari uchun o'z vaqtida to'lovni amalga oshirishni, ta'lim yo'nalishi bo'yicha akademik taqvim va darslar jadvaliga muvofiq barcha mashg'ulotlarda muntazam qatnashishni o'z zimmasiga olishi, shuningdek, Universitet tomonidan tasdiqlangan barcha talab va qoidalarga to'liq rioya qilish kerak (4-ILOVA).

30.1. To'lov tartibi va shartlari

Ta'lim xizmatlari uchun to'lov O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasi orqali – ya'ni so'mda, Universitetning hisob raqamiga o'tkazish yo'li bilan va/yoki O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida ko'zda tutilgan boshqa usullar bilan amalga oshiriladi. To'lov muddati, miqdori hamda shartlari shartnomaga muvofiq belgilanadi.

30.1.1. Ta'lim (dastur) uchun to'langan mablag'ni qaytarish

To'langan mablag'ni qaytarish shartnomaning tegishli bandiga muvofiq tartibga solinadi.

Universitet bilan kelishilgan holda Shartnomani bekor qilish yoki Talaba o'qishdan chetlashtirilganda boshlanmagan semestr uchun to'lov miqdori faqat quyidagi hollarda qaytarilishi mumkin:

- sog'lig'iga ko'ra (tibbiy ma'lumotnoma asosida);
- sud tomonidan ozodlikdan mahrum qilish munosabati bilan;
- vafot etganligi sababli.

Agar talaba quyidagi sabablarga ko'ra o'qishdan chetlashtirilgan bo'lsa, Universitet o'qish boshlanganidan keyin ilgari to'langan mablag'ni qaytarmaydi:

- o'z tashabbusi bilan;
- o'qishni boshqa oliy ta'lim muassasasiga ko'chirishi munosabati bilan;
- Universitetning Ichki tartib-qoidalari va intizomni buzganlik uchun;
- darslarni o'zlashtirmaganligi uchun (akademik qarz);
- hujjatlarni qalbakilashtirganligi uchun;
- bir semestr davomida uzrli sabablarsiz har bir modul uchun belgilangan miqdordan ortiq dars qoldirganlik uchun;
- Universitet rahbariyatiga semestr davomida xorijga chiqish rejalashtirganligi to'g'risida xabar bermaganligi uchun;
- Universitetning ichki hujjatlariga muvofiq boshqa sabablarga ko'ra.

31. Universitetdan chetlashtirishga quyidagilar asos bo'lishi mumkin:

- o'z xohishiga ko'ra;
- o'qishni boshqa oliy ta'lim muassasasiga ko'chirishi munosabati bilan;
- shartnomada ko'rsatilgan muddatlarda to'lovlar amalga oshirilmagan bo'lsa;
- sog'lig'iga ko'ra (tibbiy ma'lumotnoma asosida);
- boshqa sabablarga ko'ra.

Agar talabalar ma'lum bir sababga ko'ra o'qishdan ketishga majbur bo'lsa, u holda ular **Akademik boshqaruv ofisiga** yozma ravishda (yoki elektron pochta orqali) murojaat qilishlari kerak.

Shuni yodda tutish muhim, to'liq kurs tugagunga qadar dastur to'xtatilgan bo'lsa, talabalar Universitetda ta'lim olish davrida o'qitiladigan fanlardan akademik kredit ololmaydilar. Agar talabalar ta'lim dasturining barcha modullarining akademik talablarini bajarsalar, shundagina Universitet tomonidan belgilangan namunadagi bitirganlik haqidagi diplomga ega bo'ladilar.

Universitetdan chetlashtirish bo'yicha barcha so'rovlar yozma ravishda taqdim etilishi kerak.

31.1.1. Universitet tashabbusi bilan universitetdan chetlashtirish quyidagi hollarda bo'lishi mumkin:

- agar talaba Universitetning ichki tartib-qoidalari va tuzilgan shartnomaga muvofiq majburiyatlarni bajarmasa, shuningdek, umumiy qabul qilingan odob va axloq me'yorlariga rioya qilmasa;
- pullik ta'lim xizmatlari ko'rsatish bo'yicha shartnomada belgilangan bandlarni bajarmaganligi, shuningdek, ta'lim uchun belgilangan to'lovlarni o'z vaqtida amalga oshirmaganligi;
- qoniqarsiz o'quv natijalari tufayli (o'zlashtirmaslik);
- Universitetning ichki tartib-qoidalarida belgilangan miqdorda bitta akademik semestr davomida darslarni asossiz qoldirganligi;
- soxta hujjatlarni taqdim etganligi;
- O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq javobgarlik ko'zda tutilgan noqonuniy xatti-harakatlar sodir etganligi;
- boshqa sabablarga ko'ra.

Ma'muriyati tashabbusi bilan chetlashtirilgan talabani Universitet mashg'ulotlarga qo'ymaslik huquqiga ega. Bunday holda, to'langan mablag'ni qaytarish shartnomaning tegishli bandiga muvofiq tartibga solinadi.

II. IMTIHONLARNI O'TKAZISH TO'G'RSIDA NIZOM

32. Baholash mezonlari

Baholash Talabani dastur bo'yicha mo'ljallangan ta'lim natijalariga erishish qobiliyatini o'lchash uchun mo'ljallangan. Talabani bilimlari mashg'ulotlarda faol ishtirok etish, oraliq va yakuniy imtihonlarni yozish, kurs ishlari, taqdimotlarni bajarish, test topshiriqlarini yechish va boshqa baholash turlari natijalariga ko'ra baholanadi.

Talabalarning o'zlashtirish darajasi **100 ballik tizimida** baholanadi va eng kam akademik ko'rsatkich **40 ball** bilan belgilanadi, talabalarning bilim, ko'nikma va malakasining asosiy ko'rsatkichi hisoblanadi.

MUHIM!!! Universitetning imtihon talablariga muvofiq, talaba birinchi o'quv yilidan ikkinchi o'quv yiliga o'tish uchun tegishli modulni yakunlash bo'yicha barcha baholash komponentlari (o'qituvchi tomonidan berilgan topshiriqlar)ni o'z vaqtida muvaffaqiyatli topshirishlari kerak.

Modul bo'yicha talabalarning bilimlari quyidagi mezonlarga muvofiq baholanadi:

«A+» bahosi yoki 90-100 ball % - Talaba dasturni o'zlashtirgan, mustaqil xulosa va qarorlar qabul qila oladi, ijodiy va kreativ fikrlay oladi, modullar (mavzular) o'rtasidagi mantiqiy bog'lanishni tushunadi, mustaqil kuzatishlar olib boradi, olgan bilimlarini amaliyotda qo'llay oladi, modul (mavzu) mohiyatini tushunadi, biladi, tushuntiradi, aytib bera oladi, boshqalarga yordam beradi;

«A» bahosi yoki 80-89 ball % - Talaba dasturni o'zlashtirgan, mustaqil xulosa va qarorlar qabul qila oladi, fikrlay oladi, mustaqil kuzatishlar olib boradi, olgan bilimlarini amaliyotda qo'llay oladi, modul (mavzu) mohiyatini tushunadi, biladi, tushuntiradi, aytib bera oladi, boshqalarga yordam beradi;

«B+» bahosi yoki 75-79 ball % - Talaba dasturni o'zlashtirgan, mustaqil xulosalar qila oladi, mustaqil kuzatishlar olib boradi, olgan bilimlarini amaliyotda qo'llay oladi, modul (mavzu) mohiyatini tushunadi, biladi, tushuntiradi, aytib bera oladi, boshqalarga yordam beradi;

«B» bahosi yoki 70-74 ball % - Talaba, umuman olganda, dasturni o'zlashtirgan, mustaqil kuzatishlar olib boradi, olgan bilimlarini amaliyotda qo'llay oladi, modul (mavzu) mohiyatini tushunadi, biladi, tushuntiradi, aytib bera oladi, boshqalarga o'rgatadi;

«C+» bahosi yoki 65-69 ball % - Talaba modul haqida tasavvurga ega, modul (mavzu) yuzasidan fikr bildira oladi, olgan bilimlarini amaliyotda qo'llay oladi, modul (mavzu)ning mohiyatini tushunadi, biladi, tushuntiradi va aytib bera oladi;

«C» bahosi yoki 60-64 ball % - Talaba modul haqida tasavvurga ega, olgan bilimlarini amaliyotda qo'llay oladi, modul (mavzu) mohiyatini tushunadi, biladi, tushuntiradi va aytib bera oladi;

«D» bahosi yoki 40-59 ball % - Talaba nazariy jihatdan olingan bilimlarga egalik qiladi, modul (mavzu) mohiyatini tushunadi, biladi, tushuntiradi, modul (mavzu) haqida

tasavvurga ega;

«F» bahosi yoki 0-39 ball % - Talaba modul dasturini o'zlashtirmagan, modul (mavzu) mohiyatini tushunmaydi va modul (mavzu) haqida tasavvurga ega emas.

Muhim!!! Imtihon talablariga muvofiq, talaba moduldan o'tish uchun barcha baholash komponentlarini topshirishi kerak. Imtihonda baholashning kamida bitta komponentini taqdim etmaslik (kurs ishini va/yoki taqdimotni topshira olmagan, yozma ishda/testda qatnashmagan va hokazo) tegishli modulni o'zlashtirmagan (Fail/Refer) deb hisoblanadi va to'plangan ballar bo'yicha "F" bahosini oladi. Imtihonlarda to'plangan barcha ballar avtomatik ravishda nolga "0" tenglashtiriladi.

33. Imtihon komponentlarining formatlari

Oraliq nazorat (MIDTERM)

Oraliq nazoratning mazmuni va formatini tartibga solish kafedra mudirlari va akademik ishlar bo'yicha prorektorning bevosita nazorati ostida amalga oshiriladi. Universitet professor-o'qituvchilariga oraliq imtihonlarning formati, davomiyligini tanlashga hamda talabalar tomonidan materialni o'zlashtirishi/tushunishini monitoring qilish va o'quvchilar tomonidan materialni o'zlashtirish darajasiga qarab ta'lim kontentiga tegishli tuzatishlar kiritishga (soddalashtirish, murakkablashtirish, takrorlash, chuqurlashtirish yoki metodikani o'zgartirish va h.k.) akademik erkinlik imkoniyati beriladi.

Oraliq nazorat test topshiriqlari, insholar, savollarga yozma javoblar yoki ularning aralash varianti va boshqa turdagi yozma shakllarda amalga oshirilishi mumkin. Oraliq nazorat test topshiriqlari, insholar, savollarga yozma javoblar yoki ularning aralash turi va boshqa yozma shakllarda amalga oshirilishi mumkin. Oraliq nazoratning mazmuni tegishli kafedra o'qituvchilari tomonidan ishlab chiqiladi. Talabalarga oraliq nazorat savollari oldindan berilmaydi.

Oraliq nazorat kafedra mudirlari nazorati ostida amalga oshiriladi hamda ular tomonidan 7 kun ichida baholanadi.

Kafedra mudiri va modul uchun mas'ul o'qituvchi 7 kun ichida LMS tizimiga oraliq nazorat ishlarining natijalarini o'z vaqtida kiritish uchun mas'ul bo'lib, Imtihonlarni tashkil etish bo'limiga semestrning 14-15-haftasida barcha natijalarni belgilangan formatda taqdim etadi.

Agar talaba uzrli sabablarga ko'ra oraliq nazoratda ishtirok eta olmasa, u holda talaba 48 soat ichida Akademik ishlar bo'yicha prorektorga yozma murojaat qilishi va kerakli tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etishi kerak bo'ladi. Ariza ko'rib chiqilganidan so'ng, talaba oraliq nazoratni topshirish imkoniyatiga ega bo'ladi yoki uning arizasi rad etiladi.

Agar talaba oraliq nazoratni sababsiz topshira olmasa, u avtomatik tarzda nol (0) ball oladi.

Yakuniy imtihon sessiyalari (MAIN EXAM)

Har bir semestr oxirida (16-17-haftalarida) universitet tomonidan ushbu semestrda o'tgan barcha modullar bo'yicha **Yakuniy imtihon sessiyalari** tashkil etiladi. Ushbu imtihon

akademik minimum muvaffaqiyatli topshirish uchun birinchi urinish hisoblanadi.

Har bir modul uchun oraliq va yakuniy imtihonlar formati to'g'risidagi ma'lumotlar mashg'ulotlar davomida taqdim etiladi. Agar akademik kontent bilan bog'liq savollar bo'lsa, talaba har doim kafedra mudirlariga murojaat qilishi mumkin.

Imtihon sanasi va vaqti Imtihonlarni tashkil etish bo'limi tomonidan imtihonlar boshlanishidan kamida **1 (bir) hafta oldin** Universitetning axborot stendlarida, shuningdek, ularga tegishli elektron pochta-siga yoki universitetning rasmiy ijtimoiy tarmoqlari orqali e'lon qilinadi.

Yakuniy imtihon haftasi boshlanishidan oldin Universitet tomonidan konsultatsiya soatlari jadvali e'lon qilinadi. Ushbu sessiyalarda qatnashish imtihon ishlarini muvaffaqiyatli topshirish ehtimolini sezilarli darajada oshiradi. **USHBU IMKONIYATDAN FOYDALANA OLMAGAN TALABALAR MA'LUM BIR MODUL BO'YICHA IMTIHONLARGA QO'YILADIGAN TALABLARNI QOLDIRISH/TUSHUNMASLIK UCHUN TO'LIQ JAVOBGARLIKNI O'Z ZIMMALARIGA OLADILAR.**

Imtihonlarni topshirishda talabalar Universitet qoidalariga rioya qilishlari kerak. Imtihonlar kuzatuvchilar tomonidan nazorat qilinadi (*bu o'qituvchilar, ma'muriyat va boshqa uchinchi shaxslar bo'lishi mumkin*), ularning vazifasi talabalarning imtihon qoidalariga rioya qilishlarini ta'minlashdir.

JUDA MUHIM, talabalar o'rganilgan modullardan birini bajarish uchun aniq ko'rsatmalarga amal qilishlari kerak.

Yakuniy imtihon/qayta topshirishlar - tasdiqlangan ta'lim dasturi asosida amalga oshiriladi.

Yakuniy imtihon /qayta topshirishlar har bir semestr oxirida barcha modul uchun o'tkaziladi. Yakuniy imtihon savollari semestr davomida olingan vazifalarni qamrab oladi.

Yakuniy imtihon va qayta topshirishlar modulga asoslanib kurs ishi, taqdimot, loyiha, amaliy ish (case study), insho, yozma ish yoki test shaklida bo'lishi mumkin.

MUHIM!!!

Kurs ishi bo'lgan fanlar uchun yakuniy nazorat ishi (shu jumladan OTHM modullari uchun) majburiy taqdimot komponentiga ega, u baholanmasa ham, lekin ayni paytda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Barcha talabalar kurs ishlarini topshirgandan so'ng taqdimot yoki og'zaki imtihon shaklida himoya qilishga taklif qilinadi. Ushbu taqdimot yoki og'zaki imtihonning maqsadlaridan biri bu topshirilgan kurs ishi aslida talaba tomonidan to'g'ridan-to'g'ri yozilganligi va nima yozganini to'liq tushunganligi ehtimolini aniqlashdir. Ushbu komponent «Topshirdi/Pass» yoki «Topshirmadi/Refer/Fail» deb baholanadi. Agar talaba «Topshirdi/Pass» bahosini olgan bo'lsa, u holda talaba yozma ishi uchun barcha olingan ballari hisobga olinadi, ammo agar talaba «Topshirmadi/Refer/Fail» bahosini olgan bo'lsa (shu jumladan taqdimot / og'zaki imtihonda qatnashmagan bo'lib), unda yozma ish uchun olingan barcha ballar bekor qilinadi (nol "0" ball qo'yiladi) va talabaga keyingi safar imtihonni qayta topshirish uchun imkoniyat beriladi.

Uzrli sabablarga ko'ra imtihonda qatnashmagan/o'tmagan talabalar (tasdiqlovchi hujjatlar taqdim etgan holda) Universitet ma'muriyati tomonidan belgilangan muddatlarda imtihonga qabul qilinishi va barcha tegishli imtiyozlarga ega bo'lishi mumkin.

Universitet tomonidan barcha taqdimotlar va og'zaki imtihonlarni o'tkazish uchun imtihon va imtihon jarayonining adolatligi va shaffofligini ta'minlash maqsadida ishchi komissiya tarkibi shakllantiriladi. Ishchi komissiya tarkibiga Universitetning kamida ikkita raisi, shu jumladan o'qituvchilar kiradi.

Yakuniy nazorat topshiriqlari tegishli kafedra tomonidan ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi yoki hamkor universitet hamda OTHM Qualifications tashkiloti tomonidan taqdim etiladi. Universitet muayyan fanlar bo'yicha savollar bazasiga talabalar tomonidan o'z xohishiga ko'ra kirish imkoniyatini taqdim etish huquqini o'zida saqlab qoladi. Mazkur imkoniyat ma'lumotlarning ruxsatsiz tarqalishiga sabab bo'lmaydi hamda talabalarning o'quv jarayonini chuqurroq o'zlashtirishiga ko'maklashuvchi motivatsion mexanizm sifatida qo'llaniladi. Kurs ishlari bo'yicha topshiriqlar har bir semestrning birinchi haftasidan boshlab beshinchi haftagacha bo'lgan davrda talabalarga tanishib chiqish va tayyorgarlikni boshlash maqsadida taqdim etiladi.

Barcha talabalar darslar jadvali bo'yicha belgilangan formatda hamda ma'lum bir vaqtda har bir modul bo'yicha konsultatsiya olish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Ushbu beriladigan konsultatsiyalar imtihon topshirishdan oldin talabalarga barcha o'rganilgan materiallar va kurs ishlari bo'yicha yordam berish va ularni yo'naltirish maqsadida fikr-mulohazalar almashishda barcha savollarga javob olish imkonini beradi.

Yakuniy nazorat ishlarini topshirish muddati o'quv rejasida (akademik taqvimda) belgilangan tartibga muvofiq aniqlangach, tegishli topshiriqni yuklash havolasi LMS tizimiga joylashtiriladi. Yakuniy nazorat ishlari Imtihonlarni tashkil etish bo'limi tomonidan belgilangan vaqtda LMS tizimi orqali yuklanadi hamda imtihon o'tkazuvchi mutaxassislar o'rtasida taqsimlanadi.

Imtihon natijalari akademik taqvimda ko'rsatilgan muddatga muvofiq ravishda, topshirilgan sanadan boshlab bir oy ichida LMS tizimida e'lon qilinadi.

Davomat uchun belgilangan qo'shimcha ball

Modul bo'yicha barcha ma'ruza va seminar (amaliy) mashg'ulotlariga kamida 70% qatnashgan talabalarga davomat uchun belgilangan 10 ball beriladi.

Quyidagi jadvalda Davomat, Oraliq nazorat va Yakuniy nazoratlar uchun ballar taqsimoti keltirilgan.

Davomat (kamida 70% mashg'ulotlarga qatnashganda)*	Oraliq baholash <u>(MIDTERM)</u>	Yakuniy baholash <u>(MAIN EXAM)**</u>	Umumiy ball
10	30	60	100

*) Talaba asosiy imtihon (MAIN EXAM)da ishtirok etgan taqdirdagina davomat uchun belgilangan 10 ball beriladi, agar talaba asosiy imtihonda ishtirok etmasa mazkur imtiyozli ball taqdim etilmaydi.

) OTHM talablariga ko'ra ingliz tilidagi yo'nalishlarda ta'lim olayotgan talabalar **Main Examda 60 balldan kamida **24 ball** to'plashi shart, aks holda moduldan o'tmagan (Fail) hisoblanadi.

34. Yakuniy imtihonga/qayta topshirishga (yoki boshqa turdagi imtihonlarga) kirish

Yakuniy imtihonga kirishga ruxsat olish uchun talaba quyidagi talablarga javob berishi kerak:

- a) Universitetga rasmiy ravishda qabul qilingan bo'lishi;
- b) semestr davomida har bir modul bo'yicha minimal 70% (yetmish foiz) darslarga qatnashish talabini bajarishi (faqat kunduzgi ta'lim shakllari uchun);
- c) bir semestr davomida - laboratoriya ishlari, master-klasslar, fakultativlar va ishlab chiqarishga tashrif buyurish bo'yicha belgilangan majburiyatlarni bajarish (ta'lim yo'nalishi va shakliga qarab);
- d) pullik ta'lim xizmatlarini ko'rsatish to'g'risidagi shartnomaga muvofiq Universitet oldidagi barcha moliyaviy majburiyatlarni bajarish (o'qish uchun qarzdorlikni bartaraf qilish);
- e) shartnomada ko'rsatilgan barcha majburiyatlarni bajarish.

“b” bandida ko'rsatilgan talabni bajarmagan talabalar, agar ushbu talaba ishni «a'lo» bahoga topshirgan bo'lsa ham, maksimal 40 ballgacha (o'tish bali) past baho berish shaklida intizomiy jazo qo'llash orqali ikkinchi urinish sifatida yakuniy imtihonda qatnashishga ruxsat berilishi mumkin.

“a”, “c”, “d” va “e” bandlarida ko'rsatilgan talablar bajarilmagunga qadar ushbu talabalar barcha sinovlardan chetlashtiriladi.

Barcha talabalar yuqoridagi talablarni bajargandan so'ng, ularga ikkinchi urinish (1st Retake) sifatida yakuniy imtihonlarni belgilangan/mavjud formatda qayta topshirishga ruxsat beriladi. Bunday hollarda, asosiy imtihondan keyingi barcha qayta topshirish imtihonlarida talaba imtihon shartlarini to'liq bajargan taqdirda ham maksimal 40 ballga ega bo'ladi.

Yakuniy imtihonga (MAIN EXAM) (asosiy baholash) qo'yilmagan talabalar imtihonlarni qayta topshirish muddatini kutishlari lozim. Universitetda qayta topshirish imtihonlari quyidagicha topshirilishi mumkin:

- **ikkinchi urinish (1st RETAKE) bepul**
- **uchinchi urinish (2nd RETAKE) to'lov asosida.**

Modullarni birinchi urinishda biron sababga ko'ra topshira olmagan talabalar Universitet tomonidan talab qilinadigan minimal miqdorni **ikkinchi urinishda (1st RETAKE) bepul qayta topshirish** imkoniyati beriladi, shuningdek, ikkinchi urinishdan keyin ham

imtihonlarni yoki boshqa turdagi ishlarni topshira olmagan talabalar uchun **Universitet tomonidan belgilangan tariflarga muvofiq imtihon uchun oldindan to'lov qilib uchinchi urinishda (2nd RETAKE) oxirgi imkoniyatdan foydalanishlari mumkin.**

MUHIM!!! Imtihon uchta urinish shaklida tashkil etiladi:

Urinishlar	To'lov	Maksimal yakuniy baho (ball)
Birinchi urinish (MAIN EXAM) (asosiy)	Tekin	100
Ikkinchi urinish (qayta topshirish - 1st RETAKE)	Tekin	40
Uchinchi urinish (qayta topshirish - 2nd RETAKE)	Pullik*	40

*) *Universitet tomonidan belgilangan tarifga muvofiq*

DIQQAT!

UNIVERSITET MODUL IMTIHONINI QAYTA TOPSHIRISH UCHUN TO'RTINCHI URINISHNI BERMAYDI.

Agar talaba modulni qayta topshirgandan so'ng (ikkinchi urinish) (1st RETAKE) imtihonni muvaffaqiyatli topshira olmasa va "F" bahosini olgan bo'lsa, u holda talabaga modullarni pullik asosda qayta topshirishga universitet tomonidan tasdiqlangan tariflarga muvofiq yana bir so'nggi (uchinchi) urinish (2nd RETAKE) beriladi.

35. Uzrli sabablar hisobi

Agar talaba kasal bo'lib qolsa, jarohat olgan bo'lsa yoki imtihon kuni uning qatnashishiga bevosita ta'sir qiladigan boshqa muammoga duch kelsa yoki imtihon/kurs ishlarini uzrli sabablarga ko'ra topshirish imkoniyatiga ega bo'lmasa, bu holda imtihon komissiyasi ma'lum bir komponentni alohida belgilangan muddatda topshirish uchun yana bir imkoniyat berishi mumkin. **Ushbu holatda, talaba uzrli sabab haqida (3) uch kun oldin, kamdan-kam hollarda imtihon kuni, talabaning harakatsizligiga bevosita ta'sir ko'rsatganligini tasdiqlovchi hujjat bilan xabar berishi SHART.**

Agar talaba alohida ko'rib chiqishga loyiq deb hisoblasa, Akademik boshqaruv ofisiga barcha tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etib, Universitet ma'muriyatini yozma ravishda xabardor qilishga **MAS'UL.**

Quyidagilarni YODDA TUTISH MUHIM:

- uzrli sabab haqida kurs ishi yoki imtihondan **uch kun oldin xabar berish kerak;**
- talaba natijalarni olgandan keyin uzrli sabab borligini da'vo qila olmaydi;
- talabaning uzrli sababi haqidagi ma'lumotlar maxfiy hisoblanadi.

36. Imtihonlarni boshqarish

36.1. Imtihonlar jadvali

Universitet talabalar jadvalida ko'rsatilgan barcha imtihonlarning sanasi va vaqtini belgilaydi. Shuningdek, imtihonlar jadvali to'g'risida talabalarni Universitetdagi axborot stendlari orqali hamda talabalarining elektron pochtasiga va/yoki universitetning rasmiy ijtimoiy tarmoqlari orqali ma'lumot yuborib xabardor qiladi.

Rektor bilan kelishuvsiz imtihon jadvaliga hech qanday o'zgartirish kiritilmaydi. Talabalarining individual talablariga muvofiq o'zgarishlar qabul qilinmaydi. Talabalar imtihonlarga qat'iy belgilangan vaqtda qatnashishlari shart va talaba imtihon sanasi va vaqtini bilmasligiga sabab bo'lgan har qanday sabablar qabul qilinmaydi.

36.2. Imtihonga tayyorgarlik

Barcha talabalar imtihonlarda qat'iy belgilangan vaqtda qatnashishlari shart. Imtihonlar paytida tartib-intizom qoidalariga QAT'IY rioya qilishi lozim.

36.2.1. Yozma imtihonlarni topshirish bo'yicha ko'rsatmalar:

Imtihon boshlanishidan oldin:

- Imtihon boshlanishidan 20 daqiqa oldin auditoriyaga yetib kelish. Kech qolgan taqdirda, talaba imtihonga kiritilmaydi;
- Shaxsni tasdiqlovchi ID karta yoki pasportning asl nusxasini taqdim etish;
- Matematikadan o'tkaziladigan imtihonga ruchka, qalam va kalkulyator olib kelish (agar qoidalarga ko'ra ruxsat berilsa);
- O'zi bilan suv olib kelishga ruxsat beriladi (0,5 litr);
- Auditoriya raqamini va har bir talabaga biriktirilgan joy raqamini tekshiring;
- Imtihon auditoriyasiga kirishdan oldin talabalar shpargalka yoki imtihon paytida foydalanishga ruxsat berilmagan buyumlar mavjudligini tekshirilishiga tayyor turishlari kerak;
- Auditoriyaga kirish uchun ruxsat berilgandan so'ng, talabalar o'z joylarini egallashlari va invigilyatorlardan (Universitetning mas'ul vakillari) qo'shimcha ko'rsatmalar kutishlari va imtihonlar boshlanishidan oldin savollar varaqasiga tegmasliklari kerak.
- Auditoriyaga kirishdan oldin hojatxonaga borib kelish.

O'zi bilan birga olib kelish QAT'IYAN man etiladi:

- Telefon/smart-soat, gadjetlar yoki sumka. Agar mavjud bo'lsa, ro'yxatdagi narsalarni auditoriyaga kirishda qoldirishingiz kerak.
- Shpargalka, daftar yoki boshqa begona narsalar, agar bu ko'rsatmalarda ko'rsatilmagan bo'lsa.

Imtihon davomida:

- **Talabalar bilan muloqot qilish TAQIQLANADI;**

➤ Talabaning stolida ko'rsatilgan imtihon/javob varag'ida ma'lumotlaringizni diqqat bilan to'ldiring va pasport va/yoki ID karta hamda indeks–raqam bo'yicha barchasini tekshirib oling.

➤ Imtihon paytida talabalar bilan muloqot qilish, yon-atrofga qarash, suhbatlashish yoki boshqalarga xalaqit berish, intizom va tartib qoidalarini buzish **MAN ETILADI**.

➤ Agar sizda biron bir savol tug'lsa, qo'lingizni ko'tarib invigilyator yoningizga kelishini kuting.

➤ Imtihon vaqti tugagach yozishni to'xtating va ishni ko'rsatmalarga muvofiq talab etilganidek invigilyatorga topshiring.

➤ Imtihon vaqtida agar talaba ishini topshirmagan bo'lsa auditoriyani tark etish **taqiqlanadi**.

36.2.2. Taqdimotlarni topshirish bo'yicha ko'rsatmalar:

Imtihon boshlanishidan oldin:

➤ Belgilangan vaqtda kutish xonasiga borib, imtihonlarni topshirish uchun auditoriyaga taklif qilishlarini kutish;

➤ Modul talablariga muvofiq taqdimotni tayyorlab turish;

➤ Taqdimotingizni flesh-kartaga PPT formatida yozib oling va o'zingiz bilan olib kelishingiz lozim.

Imtihon davomida:

➤ Taqdimot va yozma kurs ishiga oid savollarga tayyor bo'lish (ko'rsatmalarga muvofiq)

➤ Savollarga qisqa va aniq javob berishga harakat qilish.

Imtihondan so'ng:

➤ Talaba taqdimotdan keyin talabalar bilan aloqa qilmasligi kerak! Bu keyingi talaba taqdimotining muvaffaqiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi va taqdimot oldidan asossiz hayajonlanishini keltirib chiqarishi mumkin. O'zingizni va hamkasblaringizni hurmat qiling!

36.2.3. Og'zaki imtihon topshirish bo'yicha ko'rsatmalar

Imtihon davomida:

➤ Har bir talaba navbati kelganida, bilet tanlaydi va imtihon oluvchiga bilet raqamini aytadi;

➤ So'ng stolga o'tirib 5 daqiqa ichida tayyorlanadi;

➤ Imtihon oluvchining savollariga og'zaki javob beradi;

➤ Savollarga qisqa va aniq javob berish lozim.

Imtihon auditoriyasida va imtihon paytida

➤ Kuzatuvchi so'ragan joyga o'tirish.

➤ Universitet ID kartasini stol ustiga qo'yib qo'yish. ID-karta bo'lmagan taqdirda,

talaba shaxsini tasdiqlovchi boshqa hujjatni taqdim etishi shart.

- Kuzatuvchini diqqat bilan tinglash va har doim ko'rsatmalariga amal qilish. Kuzatuvchi imtihonni qachon boshlash mumkinligi haqida xabar beradi.
- Imtihon xonasi ichida yoki tashqarisida boshqa talabalar yoki shaxslar bilan muloqot qilishga urinmaslik.
- Boshqa talabalarni bezovta qilmaslik, chalg'itmaslik yoki imtihonga xalaqit beradigan narsalarni qilmaslik.
- Imtihon paytida boshqa talabaga yordam berishga urinmaslik.
- Imtihon paytida boshqa talabadan hech narsa so'ramaslik.
- Talab qilinganidan ortiq savollarga javob bermaslik.

Imtihon yakunida

- Kuzatuvchi imtihon xonasidan chiqishga ruxsat bermaguncha, joyida qolish va tinchlikni saqlash.
- Imtihon xonasidan savol varaqalari, javob bukletlari yoki boshqa buyumlarni olib chiqmaslik.
- Javoblar varaqlarini, shu jumladan har qanday eslatma yoki qoralama ishni kuzatuvchiga topshirish. Ishni topshirishdan avval har qanday qoralama yozuvlarni o'chirib tashlash.

Agar imtihon paytida qoidabuzarliklar to'g'risida shubha tug'ilsa, tekshiruv boshlanadi. Imtihon jarayonini buzgan talabalar tekshiruv natijalariga qarab barcha imtihonlarni topshirish uchun ruxsat olishlari mumkin bo'ladi. Noto'g'ri xatti-harakatlar aniqlangan hollarda talaba javobi rad etiladi va ta'lim dasturidan chetlashtirishga olib keladi.

Talabalar imtihon komissiyasining qarori to'g'risida yozma ravishda yoki LMS tizimi orqali xabardor qilinadi. Talabaning imtihon qoidalari bo'yicha savollari bo'lsa, universitetning Talabalar va yoshlarni qo'llab-quvvatlash bo'limiga murojaat qilishi mumkin.

Agarda talabalar ishni bajarishda turli tushunmovchilik yoki muammolarga duch kelsalar, ular belgilangan imtihon sanasidan oldin muammoga yechim topish uchun o'qituvchiga yoki Imtihonlarni tashkil etish bo'limiga murojaat qilishlari mumkin.

37. O'qituvchilar bilan konsultatsiyalar

O'z navbatida, o'qituvchilar har bir talabani o'quv va tarqatma materiallari bilan ta'minlash orqali olgan bilimlarini mustahkamlashlariga yordam beradi.

Rejalashtirilgan imtihonlarda qatnashish bo'yicha mutloq talab talabalarga to'liq tatbiq etiladi va o'tkazib yuborilgan imtihonlarning oqibatlari talabalarga tushuntiriladi.

O'qituvchilarimiz ta'lim olishga katta e'tibor qaratib, o'z darslarida talabalarni qatnashishiga motivatsiyalash uchun mashg'ulotlarni maksimal samaradorlik bilan olib boradilar. Mashg'ulotlarda har doim ham interaktiv usullardan foydalanish imkoniyati

bo'lmaydi, ayniqsa imtihonlar oldidan, lekin biz talabalarimizni o'quv jarayoniga to'liq jalb qilishga doim harakat qilamiz.

38. Kurs ishlarini topshirish

Talabalarga kurs ishlari uchun topshiriqlar ma'lum bir mavzu bo'yicha seminar mashg'ulotlarini olib boradigan o'qituvchi va lektorlar tomonidan darslar davomida taqdim etiladi.

Kurs ishlarining topshirish kuni Universitet tomonidan semestr boshida 10 (o'ninchi) haftadan kechiktirmay belgilanadi. Agarda kurs ishlari himoya qilinsa, Universitet imtihon boshlanishidan kamida 1 (bir) hafta oldin sana va vaqtni ko'rsatadigan jadvalni e'lon qiladi.

Kurs ishlari bo'yicha topshiriqlar o'qituvchi tomonidan ham LMS platformasiga yuklanadi. Barcha kurs ishlar talaba tomonidan belgilangan muddatda faqat LMS tizimi orqali yuklanishi kerak. Boshqa hollarda, Universitet topshirilgan ishni hisobga olmaslik huquqini o'zida saqlab qoladi va ishni baholash uchun bermaslik huquqiga ega.

Universitet talabalar tayyorlagan barcha kurs ishlarini plagiat (ko'chirmachilikka)ga qarshi tekshirish huquqiga ega va talabalar tomonidan topshiriladigan barcha ishlar to'g'ridan-to'g'ri talabalarning o'zlari tomonidan yozilishi va universitetning iqtibos qoidalariga to'liq mos kelishi kerak. Talabalar taqdim etgan kurs ishi boshqa muallifga tegishli ekanligi yoki plagiat aniqlansa u holda professor-o'qituvchilar bu haqda Universitet ma'muriyatiga xabar beradilar. Universitet bunday qoidabuzarliklarga juda jiddiy qaraydi va bu talabaning kurs ishidan "0" ball olishiga yoki o'qishdan chetlashtirilishiga olib kelishi mumkin. «Akademik qoidalarni buzish (firibgarlik)» bo'limida bu haqida batafsil bilib olishingiz mumkin. Talabalar kurs ishlarini yozish bo'yicha qo'shimcha konsultatsiya olish uchun professor-o'qituvchilarga murojaat qilishlari mumkin.

Agar talaba kurs ishini oldindan xabardor qilmasdan kechikib topshirsa, har bir kechikkan kuni uchun bali pasayishi mumkin. Batafsil ma'lumotni «Kurs ishlarini kech topshirish» bo'limida topishingiz mumkin.

Kurs ishi LMS tizimiga yuklangandan so'ng, baholash ikki bosqichda amalga oshiriladi:

Dastlabki baholash: Dastlabki baholash universitet o'qituvchilari tomonidan amalga oshiriladi.

Ikkinchi baholash: Ikkinchi baholash ichki yoki tashqi imtihon komissiyasi tomonidan amalga oshiriladi.

Kurs ishlari baholangandan so'ng, o'qituvchilar har bir ish bo'yicha yozma e'tiroz va tavsiyalar beradilar, aynan qaysi jihatlar hisobga olinmaganligini va ish sifatini yaxshilash uchun qanday choralar ko'rish kerakligini ko'rsatib o'tadilar.

Kurs ishlarini tayyorlash va topshirishga qo'yiladigan talablar – barcha kurs ishlar plagiatga tekshiriladi. 2024-2025-o'quv yilida ruxsat etilgan maksimal 25% foizdan yuqori

bo'lgan kurs ishlarining plagiati (foizi yildan-yilga o'zgarishi mumkin) avtomatik ravishda bekor qilinadi va nol (0) ball sifatida baholanadi yoki tekshiruv natijalariga ko'ra baho pasaytiriladi.

Kurs ishlari O'qituvchi tomonidan belgilangan kurs ishlarini tayyorlash talablariga muvofiq PDF formatida (ta'lim yo'nalishiga qarab) ishlab chiqilishi kerak.

38.1. Kurs ishlarini kech topshirish/yuklash

Barcha kurs ishlari va/yoki boshqa har qanday imtihonlar hamda individual ishlar o'z vaqtida topshirilishi lozim (*topshirish vaqti har safar imtihon haftasi boshlanishidan oldin Universitet ma'muriyati tomonidan e'lon qilinadi*).

Kurs ishlari belgilangan muddatdan keyin 5 kun (eng kechi) mobaynida topshirilishi mumkin.

Kurs ishlari 100 ball bilan baholanadi. Belgilangan muddatdan keyin yuklangan kurs ishlari "jarimaga" tortiladi: kechiktirilgan har bir kun uchun minus10% (o'n foiz).

Barcha ma'lumotlar quyidagi jadvalda keltirilgan:

1-jadval. Kurs ishlarini kech topshirish va baholash mexanizmi.

Topshirish kuni	Ish uchun to'plangan balldan minus 10%	Maksimal yakuniy baho (ball)
0-kun	-	100
1-kun	- 10%	90
2-kun	- 20%	80
3-kun	- 30%	70
4-kun	- 30%	60
5-kun	-50%	50
6-kun	-60%	40
Belgilangan muddatdan 6 kundan keyin ham kechikkan kurs ishlari yuklanganligidan qat'iy nazar avtomatik ravishda "0" ball (Fail) bilan baholanadi.		

Masalan, agar topshiriq 100 ball bilan baholansa hamda talaba ishni belgilangan sanadan bir kun o'tib topshirgan bo'lsa, yakuniy bahoni olishda imtihon komissiyasi to'plangan ballning sonini 10% ga kamaytiradi (intizomiy jazo), ya'ni agar talaba 70 ball to'plasa intizomiy jazo qo'llanilgandan so'ng talaba 70 ball – 7 ball (10%) = 63 ballga ega bo'ladi. Shuning uchun har bir talabaning manfaati uchun kurs ishlarini o'z vaqtida topshirishlari lozim.

38.1.1. Kurs ishini yoki boshqa turdagi imtihonlarni kechiktirish (uzaytirish)

Talabalarga ta'lim berishning muhim qismi imtihonlar va kurs ishlarini belgilangan

muddatda topshirishdan iborat va shu sababli Universitet ulardan belgilangan muddatlarga qat'iy rioya qilishlarini so'raydi.

Agar talabalar uzrli sabablarga ko'ra belgilangan muddatda topshira olmasalar (quyida ko'rsatilgandek), o'zlarining kurs ishlarini (dedlayn) muddatini uzaytirishni asoslaydigan tegishli hujjatlarni ilova qilgan holda taqdim etishlari mumkin.

Topshiriqni taqdim etishni kechiktirmoqchi bo'lgan talaba kurs ishini topshirish muddatidan kamida 3 kun oldin uzaytirish uchun yozma ariza topshirishi kerak. Barcha arizalar Akademik boshqaruv ofisiga zarur bo'lgan hujjatlarni taqdim etgan holda yozma ravishda topshirilishi kerak. Imtihon komissiyasi ushbu kurs ishlarini jarima yoki jarimasiz qabul qilish yoki rad etish to'g'risida qaror qabul qiladi. Kechiktirish (uzaytirish) uchun asoslar quyidagilardan iborat:

- shifokor ma'lumotnomasi bilan jiddiy shaxsiy kasallik (kasallik guvohnomasining o'zi qabul qilinmaydi);

- ushbu vazifalarning bajarilishiga bevosita ta'sir qiluvchi ajrashish yoki yaqin qarindoshlarning o'limi kabi jiddiy oilaviy yoki shaxsiy muammolar.

Boshqa sabablar Universitet rahbariyati tomonidan faqat so'nggi holatlarda ko'rib chiqilishi mumkin.

Natijalarni e'lon qilishda kechikishlarga yo'l qo'ymaslik uchun kurs ishini topshirish muddati tugaganidan keyin (dedlayn) uzaytirish mumkin emas.

Muhim! Talabalar barcha topshiriqlarni bajarishning oxirgi muddatlarini bilishlari va shunga muvofiq o'z harakatlarini rejalashtirishlari shart.

38.2. Akademik qoidalarni buzish (akademik qoidabuzarliklar)

Akademik qoidabuzarliklar - talaba o'z baholarini yaxshilash uchun insofsiz yoki nomaqbul ish qilsa. Ta'kidlash joizki, universitetda bunday akademik qoidabuzarliklarga juda jiddiy qaraladi. Akademik qoidabuzarliklar baholarning bekor qilinishiga olib kelishi mumkin (talaba imtihonni muvaffaqiyatli topshira olmaydi). Universitet o'quv jarayonida talabalarga akademik qoidalarga qanday rioya qilishni o'rgatadi.

Akademik qoidabuzarliklar quyidagi turlarga bo'linadi:

- **Plagiat** – ma'lumotlarni, fikrlarni yoki g'oyalarni nashr etilgan yoki nashr etilmagan (rasmiy ravishda nashr etilmagan) manbadan havolani ko'rsatmasdan nusxalash va turli xil sun'iy intellekt vositalaridan foydalanishdan (masalan ChatGPT va/yoki shunga o'xshash manbalar) iborat. O'qish davomida talabalar manbalardan (masalan, kitoblar, veb-saytlar, maqolalar) qanday foydalanishni hamda ularga to'g'ri murojaat qilishni o'rganadilar. Universitet taqdim etilgan hujjatlarni, shu jumladan onlayn plagiatni aniqlash tizimi (masalan, strikeplagiarism.com, antiplag.uz, plag.uz) yordamida tekshiradi.

- **Yashirin til biriktirish** - ikki yoki undan ortiq talabalar bir xil g'oyalar va matnlarni o'z ichiga olgan individual ishlarni yaratish uchun birgalikda ishlash. **Muhimi**, talaba

o'z ishini boshqalar ko'rishi va ishlatishiga yo'l qo'ymasligi kerak.

➤ **Kurs ishini** do'sti bilan bo'lishish yoki ishni ko'chirib olinishini bilmasdan umumiy kompyuterda saqlash, ushbu ishni yozgan va undan yashirin nusxa ko'chirgan talabani baholarini bekor qilishga olib kelishi mumkin (ayniqsa, ishni kim kimdan ko'chirganligi isbotlana olmasa).

➤ **Natijalarni soxtalashtirish** - Agar talaba o'z kuzatishlari yoki hisob-kitoblariga asoslanmagan natijalar to'plamini taqdim etsa.

➤ **Subpudrat** - talaba o'z ishini yozish uchun boshqa birovni yollasa.

➤ **Tarjima xizmatlaridan foydalanish** – agarda talaba o'z vazifasi yoki kurs ishini rus tiliga tarjima qilish uchun biron b'ir platformadan: pullik tarjima xizmatlari, onlayn elektron tarjima (masalan, tarjima veb-sayti) vositalaridan foydalansa.

➤ **Imtihon paytida intizomni buzish** – talaba tomonidan imtihonda belgilangan tartibni buzishi. Masalan, shpargalkalardan foydalanish, imtihon xonasi ichida yoki tashqarisida kimdir bilan muloqot qilish, oldindan dasturlashtirilgan kalkulyatordan foydalanish yoki boshqa birovdan ma'lumotlarni ko'chirish.

Barcha ishlar talaba tomonidan bajarilganligi va foydalanilgan manbalarga tegishli havolalar mavjudligi uchun javobgardir.

38.2.1. Intizomiy jazo choralari

Yashirin til biriktirish, natijalarni qalbakilashtirish, subpudrat, tarjima xizmatlari va imtihon paytida intizomni buzishda imtihon davomida olingan baho bekor qilinadi.

Agar plagiat aniqlansa, intizomiy jazo (bahoning kamayishi miqdori/foizi) quyidagilarga bog'liq bo'ladi.

- agar talaba avval ham plagiatdan foydalangan bo'lsa;
- bajarilgan ishda ma'lum miqdorda plagiat aniqlansa (plagiat darajasi - 25% dan oshmasa);
- ko'rib chiqilayotgan malaka ishi;
- modulning umumiy bahosiga nisbatan baholash qiymati;
- agar talaba plagiatni yashirishga harakat qilganligini isbotlash mumkin bo'lsa.

38.2.2. Akademik qoidabuzarlikda gumon qilingan talabaga qo'llaniladigan choralar

a) Universitet ma'muriyati talabani suhbatga taklif qiladi. Ushbu talabadan imtihon qog'ozi unga tegishli ekanligi to'g'risida tasdiqlovchi har qanday dalillarni taqdim etish so'raladi, masalan, talaba tayyorgarlik jarayonida qilishi mumkin bo'lgan yozishmalar.

b) Talabalar bilan ikki xodim tomonidan suhbat o'tkaziladi. Ular nima sababdan

talabani akademik qoidabuzarlikda gumon qilayotganlarini tushuntirib berishadi va suhbat protokolini yozib olishadi. Agarda universitet o'rganish davomida ishning asosiy manbasini (ya'ni maqola yoki veb-saytini) aniqlagan bo'lsa, u holda bu uchrashuvda talabaga ko'rsatiladi. Shu bilan birga, noto'g'ri xatti-harakatni aniqlash uchun elektron aniqlash tizimi jalb qilinsa, talabaga aniqlash tizimi tomonidan tayyorlangan hisobot taqdim etiladi.

d) Universitet komissiyasi barcha dalillarni ko'rib chiqadi va intizom buzilganligi isbotlangan yoki yo'qligi to'g'risida qaror qabul qiladi. Talabaning aybi isbotlangan taqdirda, komissiya tomonidan qo'llaniladigan akademik jazoni (ballarni pasaytirish) aniqlash uchun qabul qilingan akademik intizomni buzish siyosatiga muvofiq ish tutadi. Ushbu qaror bir tomonlama qabul qilinishi mumkin. Natijalar e'lon qilingandan so'ng talaba qayta aloqa orqali xabardor qilinadi.

e) TIUE universiteti talabalarga akademik mahoratini oshirishda yordam beradi. Talaba o'zining noto'g'ri xatti-harakatlari va uning oqibatlari to'g'risida tushunib yetishi juda muhimdir. Hodisa takrorlansa, universitetdan chetlashtirishgacha bo'lgan intizomiy jazo chorasi belgilanadi.

Diqqat qilishingizni so'raymiz: Agar universitet imtihon oluvchi mutaxassisi akademik qoidabuzarlikning dalillarini topsa, o'qituvchilardan ularning fikri so'raladi. Imtihon komissiyasi Universitet ma'muriyati/o'qituvchisining talaba va uning yozgan ishi haqidagi fikrini ko'rib chiqadi. Agar imtihon komissiyasi yozma ishi unga tegishli emasligini aniqlasa, ushbu talabaga nisbatan akademik jazo qo'llaniladi. Universitet talabaga imtihon komissiyasining qarori to'g'risida xabar beradi.

39. Imtihon ishlarini baholash

Imtihonlar, kurs ishlari, topshiriqlar Universitet tomonidan baholanadi va o'quv yili oxirida Ichki/Tashqi imtihon komissiyasi tomonidan tekshiriladi.

Ichki imtihon komissiyasi tomonidan e'lon qilingan natijalar dastlabki hisoblanadi, ya'ni natijalar o'quv yili oxirida bir marta o'tkaziladigan navbatdagi imtihon komissiyasidan keyin o'zgartirilishi mumkin.

Barcha baholar o'quv yili oxirida ichki/tashqi imtihon oluvchi mutaxassislar tomonidan mavjud tartib-qoidalarga muvofiq tekshiriladi. Ichki/tashqi imtihon oluvchi mutaxassislar Universitetda o'qiyotgan har bir talaba imtihonlari, kurs ishlari va topshiriqlari uchun adolatli va to'g'ri baho olishlarini ta'minlaydi.

Ichki / tashqi imtihon oluvchi mutaxassislar talabalarning ishlarini ko'rib chiqqandan so'ng, ular baholash va natijalarni muhokama qilish uchun Imtihon Kengashiga hisobot berishadi.

Talabalarga yakuniy natijalar sanasi to'g'risida xabar beriladi. Har bir yakunlangan modul uchun berilgan baholar talabaning yuqori bilim darajasini ko'rsatadi.

Barcha imtihonlar kurs ishlari va/yoki taqdimotlar, test topshiriqlarini yechish, yozma imtihon yoki baholashning boshqa turlari shaklida o'tkaziladi.

Universitetda talabalar bilimi va yutuqlarini baholash quyidagi natijalarni qo'shish orqali baholanadi: 1. Oraliq nazorat (MIDTERM) va 2. Yakuniy imtihon (MAIN EXAM).

Takroriy imtihonlarni baholash oraliq nazorat (MIDTERM) bo'yicha ilgari to'plangan ballarni hisobga olmasdan amalga oshiriladi.

40. Oraliq nazorat (MIDTERM)

Oraliq nazorat, uni o'tkazish shakli va davriyligidan qat'i nazar, to'g'ridan – to'g'ri o'qituvchilar tomonidan semestrning tasdiqlangan akademik taqvimga muvofiq modulning davomiyligi va kreditlariga qarab baholanadi.

Natijalarni hisobga olish va oraliq nazorat (MIDTERM) bo'yicha to'plangan ballar bo'yicha fikr-mulohazalar to'g'ridan-to'g'ri modul o'qituvchisi va kafedra mudiri tomonidan amalga oshiriladi. Kafedra mudiri oraliq nazorat ishlarining (MIDTERM) monitoringini olib boradi va ular asosida ta'lim jarayonini takomillashtirish va samaradorligini oshirish bo'yicha tavsiyalar va qarorlar ishlab chiqish maqsadida professor-o'qituvchilar hamda talabalar bilan uchrashuvlar va muhokamalarni olib borish huquqiga ega.

Semestr yakunida (14-15-hafta) professor-o'qituvchilar Imtihonlarni tashkil etish bo'limiga talabalar tomonidan qabul qilingan oraliq baholarning (MIDTERM) batafsil hisobotini taqdim etadilar.

41. Yakuniy imtihon (MAIN EXAM)

Yakuniy imtihonning (MAIN EXAM) mazmun-mohiyatini tartibga solish Akademik boshqaruv ofisi direktori va universitet rektorining bevosita nazorati ostida amalga oshiriladi.

Yakuniy imtihon (MAIN EXAM) bir nechta komponentlardan iborat bo'lishi mumkin. **Bunda, har bir komponent alohida baholanadi.**

Birinchi bosqich: birinchi tekshirish barcha ishlarni professor-o'qituvchilar tomonidan yoki tashqi imtihon oluvchi mutaxassislarni jalb qilish orqali;

Ikkinchi bosqich: professor-o'qituvchilar tomonidan yoki tashqi imtihon oluvchi mutaxassislarni jalb qilish orqali barcha ishlarni ikkinchi tanlov asosida tekshirish.

OTHM dasturi bo'yicha ta'lim ingliz tilidagi bakalavriat dasturlari uchun:

Asosiy/yakuniy imtihonlar natijalari Akademik boshqaruv ofisi tomonidan yig'iladi va boshqariladi hamda ichki va tashqi imtihon komissiyalariga bo'linadi. OTHM talabalarining imtihon ishlari ikki bosqichda OTHMning tashqi imtihon komissiyasiga topshiriladi:

1. Ikkinchi semestrda birinchi qayta topshirishdan so'ng OTHMning barcha akademik minimumlarini muvaffaqiyatli topshirgan talabalarning imtihon ishlari "OTHM Qualifications"ga yuboriladi.

2. Olingan natijalardan qat'i nazar, uchinchi urinishda imtihonlarni qayta topshirish imkoniyatiga ega bo'lgan barcha talabalarning imtihon ishlari "OTHM Qualifications"ga yuboriladi.

41.1. Yakuniy baholashni modul bo'yicha shakllantirish

Modul bo'yicha yakuniy ball oraliq nazorat (MIDTERM) va yakuniy imtihon (MAIN EXAM) natijalarini sarhisob qilish orqali hosil bo'ladi. Oraliq nazorat va yakuniy imtihon

baholarini sarhisob qilgandan so'ng **kamida 40 ball "D" baho** to'plagan talabalar keyingi kursga muvaffaqiyatli o'tishlari mumkin.

Universitet shaffof va adolatli baholash tizimini yaratadi va o'z maqsadlarini ichki va tashqi imtihon kengashlari ishini tashkil etish orqali amalga oshiradi.

Akademik boshqaruv ofisi baholarning dastlabki natijalarini va ikkinchi imtihon oluvchining natijalarini to'plaganidan so'ng, ichki imtihon kengashini chaqiradi, u bir hafta ichida imtihon bo'limi tomonidan LMS tizimi orqali e'lon qilishi uchun natijalarni tasdiqlashi kerak bo'ladi.

Natijalar ichki kengash tomonidan tasdiqlangan dastlabki baho hisoblanadi va o'quv yili so'ngida tashqi imtihon kengashi tomonidan talabalar foydasiga ham, aksincha ham o'zgartirilishi mumkin.

41.1.1. Qayta topshirishni baholash

Qayta topshirish/takroriy imtihonlarni baholash professor-o'qituvchilar tomonidan yoki belgilangan jadvalga muvofiq ikki hafta ichida amalga oshiriladi.

Qayta topshirgan imtihonlarning yakuniy bahosi oraliq nazorat (MIDTERM) bo'yicha ilgari to'plangan ballarni hisobga olmaydi. Qayta topshirida maksimum 40 ball to'plash mumkin. Ushbu imtihonning formati va turlari rektor tomonidan tasdiqlangan jadval asosida bo'ladi.

Asosiy imtihonni uzrli sabablarga ko'ra o'tkazib yuborgan talabalar (tasdiqlangan hujjatlarning mavjudligi yoki rektorning yozma ruxsati) birinchi urinish sifatida ruxsatnoma bilan qamrab olingan komponentlarni qayta topshirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Agar talaba o'zlashtirmagan modullar soniga qarab uchinchi urinishdan so'ng imtihonni muvaffaqiyatli topshira olmasa, quyidagilarni bajarishi lozim:

➤ ushbu kursda qolib, o'tgan o'quv yilida o'zlashtira olmagan modullar bo'yicha o'qishni davom ettirib yoki keyingi o'quv yiliga o'tgan holda asosiy fanlari/kreditlaridan tashqari, o'tgan yilgi topshirilmagan modullar bo'yicha ta'lim olib va barcha imtihonlarni muvaffaqiyatli topshirishi mumkin **(o'zlashtirilmagan modullar soni 100 kreditdan oshmasagina).**

Modullarni qayta topshirish (uchinchi urinish 2nd Retake) akademik taqvimga muvofiq amalga oshiriladi. Har qanday sababga ko'ra imtihonni qayta topshirishda ishtirok eta olmaydigan talabalar (uchinchi urinish 2nd Retake) keyingi yilga o'tish imkoniyatini qo'lga kiritmaydilar. Agarda talaba TIUEda o'qishni davom ettirish istagini bildirsa, u imtihonlarni muvaffaqiyatli topshira olmagan fanlarning to'lovini amalga oshirib, o'sha kursda qolishga majbur bo'ladi. Tegishli to'lov amalga oshirilmagan bo'lsa, talabalar imtihonlarda qatnasha olmaydilar (uchinchi urinish 2nd Retake) hamda LMS tizimiga yuklangan barcha ishlar tekshirish uchun topshirilmaydi.

42. Natijalarning rasmiy e'lon qilinishi

Universitet natijalarni rasmiy ravishda e'lon qilish sanasini belgilaydi: Talaba imtihonning yakuniy natijalari to'g'risida ma'lumot oladigan kun barcha imtihon natijalari

LMS tizimida e'lon qilinadi.

43. Transkript (fanlar bo'yicha baholar ko'rsatilgan akademik o'zlashtirish to'g'risida ma'lumotnoma)

Transkriptlar joriy o'quv yilining har bir semestri oxirida berilishi mumkin va semestr yoki o'quv yili uchun yakuniy bahoni anglatadi.

Transkriptni olish uchun Akademik boshqaruv ofisiga yozma ravishda murojaat qilish kerak. Universitet murojaat qilingan kundan boshlab 3 (uch) ish kuni ichida talabaga transkript taqdim etadi.

Shu bilan birga, Universitet talabaga quyidagi hollarda Transkriptni berishdan bosh tortishi mumkin:

a) agar talabaning Universitet oldida pullik ta'lim xizmatlarini ko'rsatish shartnomasi bo'yicha moliyaviy majburiyatlari bo'lsa, talabnoma berilgan kuni yotoqxonada yashash yoki Universitet tomonidan ko'rsatiladigan boshqa xizmatlar uchun qarzlarning mavjudligi;

b) ushbu semestr ichida bir martadan ko'proq asossiz qayta so'rov bo'lsa.

44. Olingan natijalarga aniqlik kiritish to'g'risida so'rov

Agar talabada e'lon qilingan natijalar to'g'risida savollar tug'ilsa, barchasiga oydinlik kiritish uchun Akademik boshqaruv ofisiga yozma so'rov bilan murojaat qilish huquqiga ega. Akademik boshqaruv ofisi uch ish kuni ichida so'rov natijalarini taqdim etadi. Universitet ma'muriyati tomonidan talabaga ushbu ma'muriyat, kafedra vakili yoki o'qituvchi tomonidan konsultatsiya berilishi orqali taklif qilinishi mumkin.

Talabalar buni bilishlari **shart**:

➤ Universitet natijalarni rasmiy ravishda e'lon qilganidan keyin 3 (uch) ish kunidan kechiktirmay so'rov olishlari kerak;

➤ Universitet to'g'ridan-to'g'ri ota-onadan yoki talaba vakillaridan so'rovlarni qabul qilmaydi. Talaba murojaat berganidan so'ng uning bahosi nafaqat ko'tarilishi, balki pasayishi ham mumkinligini tushunishi juda muhimdir.

45. Apellyatsiya

Imtihon natijalaridan qoniqmagan taqdirda talabalar Apellyatsiya uchun imtihon natijasi e'lon qilingan kundan boshlab 3 kun ichida Rektor nomiga Ariza yozishi kerak bo'ladi. Apellyatsiya komissiyasi imtihon natijalarini professor-o'qituvchilarni jalb qilgan holda 3 kun ichida qayta ko'rib chiqadi va komissiya qarorini talabaga e'lon qiladi.

IV. KURSDAN KURSGA O‘TISH– PROGRESSION CRITERIA

46. Mezonlar

Universitetning bakalavr darajasini olish uchun keyingi bosqichga o‘tish quyidagi qoidalar bo‘yicha belgilanadi.

Kursdan kursga o‘tish mezonlari (**PROGRESSION CRITERIA**) bu dasturning bir darajasidan boshqasiga o‘tishda talabalar tomonidan amalga oshiriladigan harakatlarning asosiy prinsipi.

TIUE ichki dasturlariga muvofiq kursdan kursga o‘tish uchun talabalar barcha fanlardan muvaffaqiyatli o‘tishlari hamda o‘quv dasturiga muvofiq 160 yoki 120 kredit olishlari shart. Istisno tariqasida faqatgina imtihon komissiyasining tavsiyasi bo‘lishi mumkin *(talabalarining modullar bo‘yicha minimal ko‘rsatkichlarni topshirishga bo‘lgan sa’y-harakatlarini hisobga olgan holda, qayta topshirilgandan so‘ng imtihon ishlarining sifat jihatidan sezilarli yaxshilanishi bilan aniqlanadi)*, bu talabaga bir o‘quv yili davomida maksimal **100 kreditgacha** bo‘lgan akademik qarzdorlik mavjud bo‘lganda kursdan kursga o‘tishga imkon beradi (**OTHM dasturidan tashqari**). Talabaning kursdan kursga o‘tishi, akademik qarzdorligi 100 kreditgacha bo‘lgan holda – **TRAIL** deb nomlanadi.

Agar talabalar TIUEda OTHM qo‘shma dasturi bo‘yicha tahsil olsalar, talabani kursdan kursga o‘tkazish to‘g‘risida yakuniy qaror faqat barcha modullarni muvaffaqiyatli o‘zlashtirish sharti bilan amalga oshiriladi, ya’ni OTHM tomonidan barcha modullar uchun **“Pass”** bahosini olgandan so‘ng, bu avtomatik ravishda 120 ta kredit to‘planganligini anglatadi.

Talabalar quyida keltirilgan va tavsiflangan akademik standartlarga javob berishi kutilmoqda:

Keyingi bosqich/yilga o‘tish mezonlariga asosan talabaga qo‘yilgan talablar:

- Barcha majburiy modullarni muvaffaqiyatli o‘zlashtirish, shuningdek,
- Shartnomada ko‘rsatilgan pullik ta’lim xizmatlariga asosan Universitet oldidagi barcha moliyaviy majburiyatlarni bajarish va shartnomada ko‘rsatilgan boshqa shartlarga amal qilish;
- Universitetning ichki qoidalarini buzmaslik.

47. TRAIL – 100 kreditdan ortiq bo‘lmagan qarzdorlik bilan kursdan kursga o‘tish

Agar talaba modul(lar)ni uchinchi urinishda topshira olmagan bo‘lsa, Universitet talabaga Imtihonlar jarayoni yakunlanganidan so‘ng keyingi kursda o‘qishni davom ettirish imkoniyatini berishi mumkin (**o‘zlashtirilmagan kreditlarning maksimal soni 100 kreditdan oshmasligi kerak**), shu bilan birga, talabalarining ta’lim jarayonlariga bo‘lgan munosabatlari va boshqa sabablar ham o‘rganib chiqiladi.

Talabaning umumiy akademik qarzdorligi 100 kreditdan (OTHM dasturi bo'yicha o'qiyotgan talabalar 80 kreditdan) oshgan taqdirda keyingi kursga o'ta olmaydi. Ushbu qaror agarda talaba universitet qoidalariga (shu jumladan intizomiy xulq-atvor qoidalarini) e'tibor qilmasa va imtihonni qayta topshirish uchun ikkinchi va uchinchi urinishlardan foydalanmasagina qabul qilinishi mumkin. Har bir holat alohida ko'rib chiqiladi.

47.1. OTHM dasturi bo'yicha o'qiyotgan talabalar uchun kursdan kursga o'tish:

Agar talaba taqdim etilgan barcha imkoniyatlardan so'ng, kamida bitta modul bo'yicha imtihondan o'ta olmasa, talaba avtomatik ravishda OTHM Qualifications qoidalariga muvofiq OTHM diplomini olish imkoniyatini yo'qotadi. Bunday holatda talaba uchta urinishdan so'ng ham o'zlashtira olmagan modullarni pullik asosda qayta o'qishi talab etiladi. Universitetdagi bu jarayon **TRAIL** (modulni qayta o'rganish) deb belgilangan. Shuni alohida ta'kidlash joizki, agar OTHM dasturiga ro'yxatdan o'tgan talaba OTHM akademik talablarini bajara olmasa, u OTHM diplomidan rasmiy ravishda voz kechishi lozim. Talaba OTHM diplomidan voz kechganidan so'ng, universitetning belgilangan ichki qoidalariga muvofiq o'zlashtirilmagan modullar uchun TRAIL – pullik ta'lim olish majburiyatini tasdiqlaganidan keyingina, universitetning ichki dasturi bo'yicha keyingi bosqichni shartli ravishda davom ettirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shuningdek, agar talaba bosqichni muvaffaqiyatli yakunlaganligi to'g'risida OTHM diplomini olmagan bo'lsa, u OTHM Qualifications tomonidan belgilangan qoidalarga muvofiq keyingi OTHM darajasiga ro'yxatdan o'tish huquqiga ega bo'lmaydi.

48. REMODUL - Qayta o'qish.

Agar o'zlashtirilmagan modullar bo'yicha kreditlar soni 100 kreditdan oshsa (barcha urinishlardan keyin), talaba keyingi kursga o'ta olmaydi. Talabaga faqat o'zlashtirilmagan modullarlarni Universitetning tegishli buyrug'i bilan tasdiqlangan tariflarga muvofiq har bir o'zlashtirilmagan modul uchun to'lov sharti bajarilganda, yangi o'quv yilidan qayta o'qish imkoniyati beriladi.

Kursda (Remodule) qayta o'qiyotgan talaba semestr oxirida tasdiqlangan akademik taqvim bo'yicha imtihonlarni topshirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Agar talaba barcha fanlarni qayta o'qigandan so'ng imtihonlarni muvaffaqiyatli topshira olmasa, Universitet ma'muriyati yangi akademik yilda bir yil ichida kursga tiklanish imkoniyati bilan talabani chetlatish to'g'risidagi qarorni ko'rib chiqadi. Bu talabalarga ta'limga bo'lgan munosabatini oshirish va universitetda minimal talablardan muvaffaqiyatli o'tishlariga to'sqinlik qiladigan muammolarni hal qilish imkoniyatini beradi.

III. O‘QISHNI KO‘CHIRISH

49. Har xil turdagi o‘qishni ko‘chirish

Talabalar o‘qishlarini TIUE universitetidan davlat va xorijiy/nodavlat oliy ta’lim muassasalariga ko‘chirishlari yoki universitet ichida ta’lim shakllarini o‘zgartirishlari mumkin.

49.1. TIUEdan o‘qishni ko‘chirishda:

- O‘zbekiston Respublikasi davlat oliy ta’lim muassasalariga – O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga qabul qilish jarayonlarini tashkil etish to‘g‘risida” 2022-yil 15-iyundagi PQ-279-son qaroriga muvofiq;
- O‘zbekistondagi xorijiy va nodavlat oliy ta’lim muassasalariga – O‘zbekistondagi xorijiy va nodavlat oliy ta’lim muassasalari talablari asosida;
- Xorijiy mamlakatlar oliy ta’lim muassasalariga – Xorijiy oliy ta’lim muassasalari talablari asosida.

49.2. TIUEga o‘qishni ko‘chirish va to‘g‘ridan-to‘g‘ri qabul (direct entry)

O‘zbekiston Respublikasi davlat oliy ta’lim muassasalari, O‘zbekistonning xorijiy va nodavlat oliy ta’lim muassasalari, shuningdek, Xorijiy mamlakatlarning oliy ta’lim muassasalaridan o‘qishni ko‘chirish - tegishli ta’lim yo‘nalishi va shakli, o‘qitilayotgan fanlardagi farqi va modullar bo‘yicha kreditlar nisbati hisobga olingan holda amalga oshiriladi.

Quyidagi talablar TIUEdagi barcha bakalavriat dasturlariga hamda tegishli akademik ko‘rsatkichlar va qobiliyatlarga ega bo‘lgan potensial talabalarni tanlash uchun mo‘ljallangan. O‘qishni ko‘chirish uchun arizalar Universitet tomonidan belgilangan muddatda qabul qilinadi.

TIUEga qabul (ko‘chirish) talablari :

- O‘qishni TIUEga ko‘chirishni istagan talabalar o‘quv joyidan akademik ma’lumotnoma (transkript) taqdim etishlari kerak, unda bugungi kunga qadar o‘rganilgan va muvaffaqiyatli yakunlangan barcha fanlar, shuningdek, dastur haqida to‘liq ma’lumotlar ko‘rsatilgan bo‘lishi kerak (programme/module descriptors);
- O‘qishni ko‘chirayotgan talabalar universitetda kamida bir yillik o‘qishni tamomlashlari kerak, bunda avval o‘rganilgan barcha modullar muvaffaqiyatli topshirilganligi ko‘rib chiqiladi;
- O‘qishni ko‘chirish faqatgina tegishli ta’lim yo‘nalishi (yaqin bo‘lgan ta’lim yo‘nalishi) bo‘yicha amalga oshirilishi mumkin;

➤ Agar ariza beruvchining akademik ma’lumotnomasida (transkriptida) ko‘rsatilgan modullar hamda TIUEda taqdim etilayotgan modular o‘rtasida **100 (yuz) kreditdan ortiq farq bo‘lsa**, o‘qishni tegishli o‘quv yiliga ko‘chirishga yo‘l qo‘yilmaydi. Bunday holda,

abituriyentga o'qishni bir yil past kursda davom ettirish taklif etiladi.

➤ Tegishli o'quv kursida modullar o'rtasida **100 (yuz)** kreditgacha tafovut bo'lsa, abituriyentlarga bir o'quv yilida (bu fanlar mavjud bo'lgan semestrda) ushbu modullar (farq) bo'yicha o'qishni majburiy yakunlash sharti bilan TIUEda o'qishni davom ettirish imkoniyati yaratiladi.

➤ Agar avvalgi universitetda talabaning ta'lim tili o'qishni davom ettirishni istagan tildan farq qilsa, bu holda talaba tegishli til bo'yicha TIUEning kirish imtihonidan o'tishi lozim;

➤ Ingliz tilida ta'lim olishni istagan talabalar quyida shartlar asosida qabul qilinadi:

- 1) TIUE talablariga javob beradigan "International Foundation Programme" dasturining umumta'lim sertifikatini yoki diplomiga ega bo'lishi yoki
- 2) Kamida IELTS 5.5 yoki unga tenglashtirilgan ingliz tilini bilishini tasdiqlovchi sertifikatiga ega bo'lishlari yoki TIUEda ingliz tilidan kirish imtihonlarini topshirish natijalari bo'yicha qabul qilinishi mumkin.

49.3. TIUEda ichki ko'chirish:

Ichki ko'chirish TIUE talabalarining ichki ko'chirishi hisoblanadi:

➤ kunduzgi ta'lim shaklining bir yo'nalishidan boshqasiga (birinchi kurs **10 kun** davomida);

➤ kunduzgi ta'lim shaklidan sirtqi ta'lim shaklining tegishli yo'nalishiga;

➤ bir ta'lim tilidan boshqa tegishli ta'lim yo'nalishiga o'tishda:

a) rus tilidan o'zbek tiliga yoki o'zbek tilidan rus tiliga yoki ingliz tilidan rus yoki o'zbek tiliga ko'chirish - suhbat natijalari bo'yicha amalga oshiriladi;

b) o'qishni rus yoki o'zbek tilidan ingliz tiliga ko'chirish – kamida IELTS 5.5 yoki unga tenglashtirilgan ingliz tilini bilishini tasdiqlovchi sertifikat yoki TIUEda ingliz tiliga kirish imtihonlarini topshirish natijalari bo'yicha amalga oshiriladi.

Ko'chirish uchun talabalar quyidagi talablarga javob berishi kerak:

➤ Talaba bir akademik yilda o'quv dasturini muvaffaqiyatli yakunlashi kerak;

➤ Talabaning Universitet oldidan akademik va moliyaviy qarzdorligi mavjud bo'lmasligi kerak;

➤ Talaba rektor nomiga ariza berishi kerak.

Agar guruhdagi talabalar soni 20 nafardan kam bo'lsa, Universitet moliyaviy maqsadga muvofiq bo'lmagan taqdirda ko'chirishni rad etish huquqini o'zida saqlab qoladi.

TIUEning ta'lim dasturi barcha yo'nalishlar bo'yicha bir-biridan sezilarli darajada farq qilishi sababli, birinchi kurs boshlangandan boshlab 20 kun davomida bir yo'nalishdan boshqasiga o'tishga ruxsat etiladi.

Izoh: *TIUE ma'muriyati talaba akademik yil davomidagi o'zlashtirish natijalariga ko'ra rus tilidan o'zbek tiliga ko'chirishni tavsiya etishga haqli.*

V. SIRTQI TA'LIM UCHUN ALOHIDA SHARTLAR

Sirtqi ta'lim - ish joyidan ajralmagan holda oliy va o'rta maxsus ma'lumot olish shakli. Bakalavr bosqichining Sirtqi ta'lim shakli davomiyligi 5 yil bo'lib, kunduzgi ta'limdan farqi ko'proq mustaqil o'zlashtirishga yo'naltirilgan. 5 yil davomida talaba 480 kredit to'plaganidan keyin (barcha majburiy modullarni o'zlashtirgan) Bakalavr darajasi beriladi. Bir semestr davomida o'rtacha 3 ta modul o'zlashtiriladi.

50. TIUE da sirtqi ta'lim quyidagi tartibda tashkil etiladi:

Talaba akademik taqvimga asosan, semestr davomida o'quv rejadagi modullarni mustaqil o'zlashtiradi. Buning uchun talaba TIUE LMS platformasida (<https://lms.tiue.uz>) professor-o'qituvchilar tomonidan yuklangan fanga oid o'quv materiallaridan, TIUE Axborot-resurs markazidan foydalanishi va yuklab olishi mumkin.

Har semestr yakunida talabalar 3 hafta davom etadigan seminar/konsultatsion mashg'ulotlarga hamda imtihon sessiyasiga chaqiriladi. Ushbu 3 haftalik mashg'ulotlarga va imtihonga qatnashish majburiydir!

Talabalar uchun kursdan-kursga o'tish talablari. O'quv yili yakunida o'tkazilgan modul imtihonlari natijalari asosida talabalar kursdan-kursga o'tishi yoki qayta o'qishga qoldirilishlari mumkin. Talaba kursdan-kursga o'tishi uchun o'quv rejasida belgilangan barcha modullar bo'yicha yakuniy baholashdan ijobiy natija olishlari zarur. Agar talabaning akademik qarzdorligi **80 kreditdan** oshmasa, unga shartli ravishda navbatdagi kursga o'tishga ruxsat beriladi. Shartli ravishda kursga o'tgan talabalar qarzdor modullari bo'yicha belgilangan to'lovni amalga oshirgach, imtihon haftasida ushbu modullar bo'yicha imtihon topshirishlari shart.

2024/2025-o'quv yilidan oldin o'qishga kirgan talabalar uchun qo'shimcha onlayn mashg'ulotlar kechki vaqtda tashkil etiladi.

Modul imtihonlari va baholash kriteriyalari:

Imtihon shakli (yozma, og'zaki, kurs ishi yoki test) haqida hamda baholash kriteriyalari haqida ma'lumotlar batafsil LMS tizmida modul sahifasida keltirilgan. Test shaklda olinadigan imtihonlar kompyuterda yoki qog'oz shaklida, imtihon bo'limi nazorati ostida amalga oshiriladi.

Imtihonlar natijalari (Oraliq va Yakuniy imtihonlar) LMSda e'lon qilinadi.

Modullar bo'yicha imtihonlar quyidagicha tartibda amalga oshiriladi:

Oraliq Imtihonlar (Midterm) semestr o'rtasida Akademik taqvimda belgilangan muddatlarda tashkil qilinadi. Talabalar LMS ga kirib modullarda belgilangan topshiriqni bajarib LMS ga yuklashi kerak. Batafsil ma'lumotlar modul sahifasida berilgan. Oraliq Nazoratga 30 ball beriladi. Yakuniy Imtihonlar semestr yakunida 3 haftalik mashg'ulotlar yakunida TIUE da o'tkaziladi. Modul imtihondan minimal o'tish balli 40 ball.

Imtihon muddatlari:

Barcha imtihonlar Akademik taqvimda ko'rsatilgan muddatlarda tashkil qilinadi. Modul bo'yicha asosiy imtihon semestr yakunida o'tkaziladi. Ushbu imtihonni muvaffaqiyatli

topshira olmagan talabalar uchun qayta urinish (1st retake) imtihoni tashkil etiladi. Ikkinchi urinish imtihoni (2nd Retake)da qatnashish shartnoma-to'lov asosida amalga oshiriladi.

IV. MAGISTRATURA UCHUN ALOHIDA SHARTLAR

51. MAGISTRATURADA TA'LIM JARAYONINI TASHKIL ETISH

Magistratura dasturlari (ta'lim ingliz, o'zbek va rus tillarida) bir yarim yillik bo'lib, bir semestrga 60 kredit jami 180 kreditdan iborat.

Magistratura mutaxassisligini muvaffaqiyatli yakunlash uchun talaba barcha fanlarni o'zlashtirishi, ilmiy-pedagogik ishni to'liq bajarishi hamda magistrlik dissertatsiyasini himoya qilishi lozim. Bunda magistrlik dissertatsiyasini himoyasiga qo'yilishi uchun talaba vakolatli organ tomonidan tasdiqlangan namunada xorijiy til sertifikatini belgilangan darajadagi ko'rsatgichi bilan taqdim etishi, dissertatsiya mavzusi bo'yicha ilmiy jurnallar yoki ilmiy-amaliy konferensiya to'plamida kamida 2 ta maqola nashr qilishi hamda ijobiy ichki va tashqi taqrizlarni taqdim etishi shart.

Aytib o'tilgan shartlardan birini bajarmaslik magistrlik dissertatsiyasini himoyasiga qo'yilmaslik uchun asos hisoblanadi.

52. Mavzuni tanlash va ilmiy rahbarni tayinlash

Magistrlik dissertatsiyasi o'qish va o'quv dasturlarini o'zlashtirish jarayonida magistratura talabasi egallagan nazariy va amaliy bilimlari asosida bajarilgan ilmiy-tadqiqot ishlarining natijasi hisoblanadi.

Magistrlik dissertatsiyalarining mavzulari Universitet kafedralarning professor-o'qituvchilari tarkibi, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi ilmiy muassasalari, tarmoq ilmiy-tadqiqot va loyihalash muassasalari xodimlari tomonidan shakllantiriladi.

Kafedralar tomonidan taqdim etilgan va Universitet Ilmiy-texnik kengashida muhokama qilingan magistratura talabalarining magistrlik dissertatsiyalari mavzulari va ularning ilmiy rahbarlari (ilmiy maslahatchilari) akademik ishlar bo'yicha prorektor taqdimnomasiga asosan magistratura talabalari o'qiyotgan birinchi o'quv yilining birinchi ikki oyi ichida Universitet rektorining buyrug'i bilan tasdiqlanadi.

53. Magistrlik dissertatsiyasining tuzilishi va uning mazmuniga qo'yiladigan talablar

Magistrlik dissertatsiyasining asosiy qismi kamida uch bobdan iborat bo'lib, boblar hajm jihatidan o'zaro mutanosib bo'lishi lozim.

Magistrlik dissertatsiyasining xulosa qismida barcha boblarda qayd etilgan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati, shuningdek ilmiy tadqiqot muammosini hal etish bo'yicha xulosalar yoritiladi. Xulosa qismi 4 sahifadan oshmasligi kerak.

Magistrlik dissertatsiyasi magistratura talabasi o'qigan tilda (kafedra tavsiyasiga muvofiq chet tilida) tayyorlanadi. Chet tilida tayyorlangan magistrlik dissertatsiyasiga davlat tilida yozilgan annotatsiya ilova etiladi. Bunday magistrlik dissertatsiyalarining dastlabki va rasmiy himoyalari tarjima bilan o'tkaziladi.

Magistratura mutaxassisligi xususiyati hisobga olingan holda magistrlik dissertatsiyasi tarkibiy qismlarining mazmuni va hajmi Universitet Ilmiy-texnik kengashining qarori bilan

o'zgartirilishi va ko'paytirilishi mumkin.

DASTLABKI VA RASMIY HIMOYANI O'TKAZISH TARTIBI

Magistrlik dissertatsiyasining dastlabki himoyasi ilmiy rahbar (ilmiy maslahatchi) ishtirokida kafedra tomonidan tuzilgan komissiyada tashkil etiladi.

Dastlabki himoyaga qadar magistratura talabasi ichki va tashqi hamda ilmiy rahbar taqrizlariga, shuningdek dissertatsiya mavzusiga doir kamida 2 ta ilmiy maqola yoki tezisga ega bo'lishi kerak.

Magistrlik dissertatsiyasi belgilangan talablarga mos kelmagan holatlarda, magistratura talabasi tomonidan kasb odob-axloqi qoidalari (plagiat, ma'lumotlarni soxtalashtirish, yolg'on tsitata keltirish va boshqalar) buzilganligi aniqlangan taqdirda, shuningdek ushbu holatlarni qisqa muddatda tuzatish imkoniyati mavjud bo'lmaganda taqrizchi magistrlik dissertatsiyasini himoyaga qo'yish maqsadga muvofiq emasligi to'g'risida xulosa beradi.

Magistrlik dissertatsiyasini rasmiy himoya qilish kuni Universitet rektorining buyrug'i bilan tasdiqlangan jadval asosida belgilanadi.

"Qoniqarsiz" baho qo'yilganda yoki magistrlik dissertatsiyasi rasmiy himoyaga qo'yilmagan taqdirda magistratura talabasi keyingi 3 yil davomida uni qayta himoya qilish huquqiga ega.

Magistrlik dissertatsiyalari rasmiy himoyasi natijalari Universitet Ilmiy-texnik kengashida muhokama etiladi.

Himoya qilingan magistrlik dissertatsiyalari Universitetda 3 yil davomida saqlanadi.

Magistrlar tayyorlashni tashkil etish SXEMASI

Bosqichlar	Tadbirlar	Bajarish muddati
I bosqich	Abituriyentlarning hujjatlarini qabul qilish	Iyul-avgust
II bosqich	Magistraturaga kirish imtihon(suhbat)larini o'tkazish	Sentabr
III bosqich	Pedagoglar tarkibini shakllantirish	Avgust-sentabr
IV bosqich	Magistratura ta'lim jarayonini tashkil qilish	Kamida bir yil
V bosqich	Magistrlik dissertatsiyasi mavzusini tanlash va ilmiy rahbarni tayinlash	Birinci o'quv yilining birinchi ikki oyi davomida
VI bosqich	Magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash	Magistratura talabasining kalendar ish rejasi bo'yicha
VII bosqich	Magistratura talabasi faoliyati ustidan monitoring olib borish	Iyun, noyabr
VIII bosqich	Magistrlik dissertatsiyasining dastlabki va rasmiy himoyasi	Jadval asosida

YAKUNLOVCHI SO‘ZLAR

Universitet jamoasi ushbu qo‘llanma barcha talabalar uchun foydali va kerakli ma’lumotlarni taqdim etishiga umid qiladi.

SIZGA MUVAFFAQIYAT TILAYMIZ!